

• SO‘Z CHAMANI •

Matnazar
ABDULHAKIM

84.(50'2)
M 39

SO'Z CHAMANI

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
«IJOD» JAMOAT FONDI

*To topibon xush takallum tuzay,
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.
Alisher Navoiy*

Matnazar ABDULHAKIM



Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi



013978/7

Toshkent
«Akademnashr»
2020

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')

M 31

- M 31** **Matnazar Abdulhakim** [Matn] / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Muhiddin Abdusamad. - Toshkent : Akadem-nashr, 2020. - 128 b.

ISBN 978-9943-6361-0-1

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Muhiddin Abdusamad

Matnazar Abdulhakim ijodi bilan yaqindan tanish kitobxon borki, bu donishmand ijodkorning yozganlari falsafiy mushohadaga boy ekanligini yaxshi bilishadi. Eng muhimi, uning ijodidagi o‘ziga xoslik an’anasi adib she’riyatiga bo‘lgan ishtiyoqni, uning kitoblarini o‘qishga bo‘lgan ehtiyojni paydo qiladi.

ISBN 978-9943-6361-0-1

© «Ijod» jamoat fondi, 2020

© «Akademnashr», 2020

VATANNI IZLASH

Emasdir falon ming aholi,
Vatan falon farsah masofa emas.
Uni yasha. Yo'qsa, kechmaydir xoli,
Vatan – xo'rsiniqdir, vatan bu – nafas.

Vatan bu – tog'. Metin – mustahkam,
Lekin xavotirdan yurakda g'amdir.
Vatan bu – yaproqdan tomay-tomay deb
Milt etgan omonat shabnamdir.

Shu qarshingda chaqnab quyoshdek balqqan
Qaro ko'z vatandir, Vatanim.
Yuragingni yorib, tilingga qalqqan
Yaro so'z vatandir, Vatanim.

Vatan – sen. O'zingga bir razm solib
E'tibor qil, do'stim, bir zamон.
Vatanning mo'jaz bir timsoli
Bo'lmasang, bu – yomon.

Vatandan ham buyuk Vatan bor,
Maqsad – shu Vatanni yo'q qilmaslikdir.
Bu Vatan – boshqa bir insonning
Vataniga ko'zni lo'q qilmaslikdir!

ONAGINAM

Baxt izladim men dala-dashtdan,
Orzuyim bol, umidim asal.
Onaginam! Seni aldashdan
Halokatni sanadim afzal.

Sarmast qildi chamanlar vasli,
Qayg'urmadim rizqi ro'zimni.
Yashadim men bag'ishlab, asli,
Faqt o'zgalarga o'zimni.

Bilmam, uchdim qanchalab chaqrim,
Goh mag'lub, goh g'olib keldim men.
Bol deb mehrim, asal deb faxrim,
Topganimni olib keldim men.

Gullar ichdim ichgandek qasam,
Loyiq bo'ldim zahmatkash safga.
Balki... balki, yanglishib ba'zan
Qo'nib qo'ydim sassiq alafga.

Noz bo'ylardan uyg'onib sahar
Uchmoqqa yo'q, ehtimol, haqqim.
Balki, asal deganim zahar,
Bol deganim, ehtimol, zaqqum.

Xullas, o'zing bilasan, onam,
Sen ming sirdan xabardor hakim.
Xohla, meni qabul et, mana,
Xohla, boshim uzib tashlagin.

ORZU

Tinib qoldi sen haqda qo'shiq,
So'nib qoldi ranglar sen haqda.
Husning faqat dilda jilvali,
Isming dilda jaranglamoqda.

Yo'llar visol haqda kuylamas,
Shivirlamas baxt deb biron barg.
So'zlar she'rmas, tovushlar qabri,
Mo'jizalar bo'ldi juvonmarg.

Diydor endi baxsh etmas iqbol,
Ayriliq ham keltirmas ziyon.
Bu kulfatga chidab bo'lmaydi,
Ko'taraman men unga isyon!

Yengaman. So'ng orzularimda
Keltirasan so'limgan gullar.
Sen kelar yo'l changlari visol
Alangasi bo'lib lovullar.

Aytmaganining rozlarni tinglab,
Xayolingni qilgum tavoflar.
So'zsiz maktub jo'natib senga,
Olajakman so'zsiz javoblar.

Mo'jizalar hayotga qaytib,
Yo'llaringga entikib qarar...
Qancha amri mahol bo'limagin,
Sen kelasan, baxtim, muqarrar.

YO'L

Ikki yog'i qator-qator gujum – yo'l...
Men ishga xayolchan shundan o'taman.
Qutlug' bir mo'jiza – har kungi diydor,
Ko'zlarimga ishonmay ketaman.

Ukalar varrakka topmagan shamol
Bizni axtaribmi, unda yelyapti.
Mana, og'ochlarni uyg'otib bunga,
Hayajonga to'la bahor kelyapti.

Asfalt ostidagi nish urgan urug'
Hujum boshlagandir ohista... toshga.
Baxtiga chidolmay qushchalar bunda
Osmonni ko'tarib yubordi boshga.

Qattiq sog‘inishdan munglig‘ ko‘zlarim
Noyob diydoringga termulib to‘ymas.
Yurak sirim bo‘lgan muhabbatimni
Yashil borliq endi fosh qilmay qo‘ymas.

Mutolaa qilib o‘tasan bundan
Yashil yaproqlarni – ishqdan darslikni.
Men esa xavotir bilan kutaman
Seni bunda nogoh uchratmaslikni.

Bir yo‘lga mahkummas inson umrbod,
Yuraverib-yuraverib, axir, tolasan.
Sen tufayli sevib qolgan yo‘limdan
Bir kuni ayovsiz o‘tmay qolasan.

Daraxtlar barg to‘kar ko‘zyosh o‘rniga,
To‘kilgan yaproqlar yerga qorilar.
So‘ng bu yo‘l bizlarni tush ko‘rar faqat
Hazin-hazin yog‘ib turganda qorlar.

Qismat visolmi yo hijron – bilmayman,
Qayda bo‘lsak hamki ikkov u paytda –
Bizni eslash uchun bu yo‘lga har yil
Bahor kelaverar qayta va qayta.

IRODA

Fasl tanlamaymiz. Hammasi bahor,
Qovjiraydi faqat yolg‘on-yashiqlar.
Biz abadiy nekbin. Mangu umidvor.
Biz – ko‘ngli sovishni bilmas oshiqlar.

Qishlar va bahorlar, yozlar va kuzlar
Biz uchun barobar yangroq torlardir.
Yerga yog‘a olmay yongan yulduzlar
Bizlar qalovini topgan qorlardir.

Tog‘dek toqtlardan mumiyodek sirqib,
Do‘srlarga atalgan dil rozlarimiz.
Qanotimiz po‘lat. Hech bo‘lmas qirqib.
Jaranglab turadi parvozlarimiz.

TASALLI

Yo‘ldosh Eshmurodovga

Oddiygina osmon ostida,
Oddiygina shu zamin uzra
Betimsol bir qiz yashaydi deb
Ishonging ham kelmaydi sira.

U qiz esa yashaydi, ana,
Yo'liqasan goh erta, goh kech.
Har kun, har kun uni ko'rasan
G'aflat qursin, tanimaysan hech.

Tani, faqat tanib olsang, bas,
U qiz ma'yus o'yga toladi,
Hamda seni, oddiy o'zingni
Bir kun qattiq sevib qoladi.

Shunday qattiq sevadiki, u
Yasholmaydi sensiz bir zamon.
Mo'jizaga aylanadi yer,
Mo'jizaga aylanar osmon.

So'ngra termulmaysan, chaqnaysan,
Aytimas, yo'q, yonadi so'zing.
Mo'jizaga aylanib ketib,
Tanimaysan o'zingni o'zing.

So'ngra neki yuragingga zid
Bo'lar inkor, bo'lib ketar rad.
Qarabsanki, turgan-bitganing
Baxtdan, faqat baxtdan iborat.

DIYDOR

Mukammal bu go‘zalligingni
Yonib qilgim keladi ta’rif.
Biroq, ne qilayki, qoshingda
Eng qudratli kalomlar g‘arib.

Visolingni qilsam-da havas,
Mehrim izhor etmadim hech vaqt.
Sen bilan bir havodan nafas
Olish o‘zi menga katta baxt.

Bir qayrilib tashlasang nigoh,
Yurak to‘lar so‘nmas ziyoga...
Seni bir bor ko‘rish-chun faqat
Kelib ketsa arzir dunyoga.

XABARING YO‘Q

Zorimni sezib, titradi dutor, xabaring yo‘q,
G‘aflatda sen-u, men bunda bedor, xabaring yo‘q.

Olamni bosar zulmat agar lahza yumilsa
Ul ko‘zlarining, ey ko‘zlarini xummor, xabaring yo‘q.

Ishq bo‘lmasa, koshonayi baxt kunpayakundir,
Ishq tuyg‘usidir eng buyuk me’mor, xabaring yo‘q.

Ham mening, ham qoldi kuni ishqqa zaminning,
Ikkimiz ham yo'qsa u bemor, xabaring yo'q.

Qalbingdagi ishq qatrasini oftob olgach,
Atrofida yer aylanadi zor, xabaring yo'q.

Baxtingni kutib vaqt o'tishin tezda tilarsan,
Umringni o'g'irlaydi u ayyor, xabaring yo'q.

Debsanki, xabarsiz Matnazar jabrima mahkum,
Bundan xabarim allaqachon bor, xabaring yo'q.

* * *

Mening Layli-yu Shirin o'rnida sen
sarvinozim yo'q,
Na Farhodga, na Majnunga,
iloj qancha, qiyosim yo'q.

Sen har bir iltifot etgan ko'ngil
osmonda lochindir,
Qolib chetda nigohingdan,
mening bu imtiyozim yo'q.

Ko'zimdan ko'nglima botdi umidlar,
sen ketib qolgach,

Quyosh yanglig‘ lovullashga tiganmas
ehtirosim yo‘q.

Sen aytgan ta’nalarga tog‘ chidar,
toshlar berar bardosh,
Mening bo‘lsa vujudim tog‘ emas,
toshdan libosim yo‘q.

Qayon ketmak kerak sensiz,
bilolmasman sira, lekin
Ming ildiz otganim bu elda bir
lahza turosim yo‘q.

Seni sevdim va sensiz men chaqinman,
nuri yo‘q zarra,
Seni sevdim va sensiz qaldiroqman,
guldurosim yo‘q.

Unutding nogahon sen Matnazarni,
bu azobingga
Seni yod aylamakdin o‘zga hech
bir e’tirozim yo‘q.

DA'VAT

Xurshid Davronga

Ne kerak zaminni titratmas surur,
Ko'kni zir titratmas ohni netamiz?
Ko'p ham davronnishin bo'lavermay, yur,
Hazrat Navoiyga ketamiz.

O'tmishni unutib qo'ysak, tushov shu –
Keljakka yelgan xayol – G'irotga.
Hech mahobat qilmay, ko'tarmay shov-shuv,
Bir borib kelamiz qadim Hirotga.

Teran bir anduhga qilamiz safar,
Jo'naymiz, do'stginam, yuksak bir baxtga.
«O'n million, yuz million va milliard nafar»,
Hammamiz sig'amiz she'riyat – taxtga.

Hali jabr-u sitam ko'hnaygani yo'q,
Bir qiz bor, azobi o'limdan yomon.
Ketdik, «Chor devon»da har bir kiprik – o'q,
Ketdik, «Chor devon»da har bir qosh – kamon.

Asta qilich serpab qiyo qarashlar
Yurakka soladi hech bitmas yaro.
Lekin zid kelsa ham dunyoqarashlar,
Bizni dorga tortmas Husayn Boyqaro.

Hikmatga yo‘g‘rilgan unda har bisot,
Qaroqqa joylaymiz bari-barini...
Bir borib kelamiz. Tushimda ul zot
Qattiq sog‘inibdi nabiralarini.

QOR QO‘SHIG‘I

Lahza tinim bilmay kutdim bu kunni,
Bugun orzularim, mana, ushaldi.
Sen atayin uxlab o‘tkazding tunni,
Men-chi yog‘averdim, men-chi to‘shaldim.

Bo‘ronlarda yelib, hovlingga kelib,
Uyingni aylanib kezdim jon halak.
Nihoyat, nihoyat, uyg‘otdim seni
Derazangda bo‘lib girdikapalak.

Yog‘duga ko‘mildi bedor hislaring,
Ular bois bo‘ldi oppoq faxrimga.
Ohista-ohista bosgan izlaring
O‘yilib-o‘yilib qoldi bag‘rimga.

Istasang, do‘stingga ot. Turibman shay.
Axir nechun bundan qilay orlar man?
Sevib, shodligimdan osmonga sig‘may,
Senga zorlar bo‘lib yog‘gan qorlar – man.

Men uchib qo'nayin, sen quvna yal-yal,
Sen sira qilmagin shodlikni kanda.
Kechir, ko'zyoshingga o'xshab qo'ysam sal
Kiprigingga asta qo'nayotganda.

Shodligingga qisqa umrimni berib,
Oh-fig'on qilmasdan, nolimasdan, jim,
Asta yer qa'riga ketaman erib
Senga atab gullar yuborish uchun...

SEN, JONIM, MANA SHU BOG'LARNIKISAN

Turkum

1

Maftun bo'lib, bo'lib tashnadil,
Diyoringda kezgan chog'larim
Ajib sehr bilan yashnadi
Bog'ot dalalari, bog'lari.

O'zi kelgan edim bir malham istab,
Qilganidan sog'inch ko'ksimni choklar.
Chanoqlar charaqlab ohista,
Tim-tim ko'zyosh to'ka boshladi toklar.

Yuragim shundan baxt ulgisi,
Shundan ko'zlarimda fusunlar.
Paxtalar – chanoqlar kulgisi,
Tokning ko'zyoshlari uzumlar.

Ular ozod bejiz dard, g'ashdan,
Ular bekor yig'lab-kulmaydi.
Ular yig'lab-kulib ishlashdan
Boshqa hech narsani bilmaydi.

Biz shodmiz, g'amginmiz deymiz-u,
Behuda kulamiz, kuyamiz.
Tokzorlar ko'zyoshin yeymiz-u,
Chanoqlar kulgisin kiyamiz.

2

Bog'ot bog'larining o'rnida bo'lsam,
Sermeva xayollar surib turgan jim,
Sen bilan Urganchga kelardim,
Bog'larga cho'mardi Urganchim.

Yo ko'ngling boshqa bir manzilni qo'msab,
Bag'rimni tark etgan zahoting
Yig'lab ergashardim izingdan,
Huvillab qolsa ham Bog'oting.

Safar chog'i yerda qoldirmas edim
Iltijo, hasratlar, ohlarni.
Yetaklab qaytardim Bog'otga
Senga maftun bo'lgan bog'larni.

Kelar edi ular guras va guras
Vohalar, vodiylar, tog'lardan.
Bog'ot paxtazordan emas, yo'q,
Iborat bo'lardi bog'lardan.

Lekin... o'zbilarmon hayot bu,
Ishlar ish, so'zlar so'z o'rnidan.
Men Bog'ot bog'lari emasman,
Qo'zg'almas bog'lar o'z o'rnidan.

3

Men havas qilaman – katta-yu kichik,
Men havas qilaman – yosh-qari
Diydoringga har kun musharraf bunda
Va baxtlidir haddan tashqari.

Sen nafaqat mening yuragimdag'i
Umrbod qolguvchi dog'larnikisan.
Sen, jonim, mana shu elning umidi,
Sen, jonim, mana shu bog'larnikisan.

Garchi saxovatda yetti iqlimga
Ketgan bu bog'larning ovozalari,
Seni izlab kelsam, yopilib qoldi
Ularning shafqatsiz darvozalari.

Men na-da yolvordim ularga,
Men na-da ularga bosh urdim.
Faqtgina sensiz o'zimni
Men o'z yuragimga yashirdim.

Faqatgina ketdim ayriliqzada,
So'ldirmay umidim bog'ini,
Yashash uchun seni menga bermagan
Bog'ot bog'larini sog'inib.

4

Qoraqum – og'ir o'y. Unga botganman,
Iftixor etganman farzand atanib.
Qa'r-qariga o'qdek ildiz otganman,
Buyuk bu tashnalik – mening vatanim.

O'qraygan turqimdan ohudek hurkar
Bog'-bo'stonga cho'mgan so'lim bu yurting.
Yupun yuragimni mehrga burkab,
O'zing xayolimga tashrif buyurding.

Meni yo'qlab kelding ne jur'at bilan
Borlig'im ayovsiz huvillagan payt?
Bu qadar tap tortmas bo'larmi gul ham?
Bu yer sahro. Kelgan yo'lingga tez qayt.

Xatarnok xo'mrayar sanoqsiz barxan,
Qumto'zonlar so'rab turmaydi izn.
Beradilar sening ko'rkingga barham,
Ko'mib tashlaydilar seni, azizim.

Senga yarashadi shabada va sarv,
Menga esa faqat yovshan va dovul.
Axir sen nihoyat nafis bir gulsan,
Men bo'lsam bor-yo'g'i saksovul.

5

Yam-yashil bog'laring – sarrin sultanat,
Mehrim – lovullagan ma'vodir.
Sen lahma ham tinmay gullamog'ing shart
Jaziramdan olmay xavotir.

Samumdek xavf solib bu sha'n hayotga
Garchi bu yerlarda yelmayman,
Garchi har lahzada ming yashnayotgan
Chaman xayolingga kelmayman.

Oshiqqa diydordan o'zga ne tama?
Diydoringda, axir, mening bor haqim.
Men seni ashaddiy umid etaman,
Bog' orzu qilgandek Qoraqum.

Sevgim gunoh bo'lsa, ayriliq – jazo,
Giriftoriman bu jazoning.
Yetmasa bas undan senga ham azob,
Xazonimdir sening xazoning.

Sen nogahon so'lsang, bog'lar holi tang,
Qovjiraydi tole qarorgohlari.
Baxtimga, bor bo'lsin mangu validang –
Bog'otning barq urgan bog'lari.

6

Bog'larda xazonlar sipohi
Azaldan muzaffar bir lashkar...
Bugun menga qarshi anduhlar
Birlashgan... birlashgan... birlashgan...

Biron-bir mehribon ko'rinsiz
Navoiy kuylagan saf aro.
Yaproqlar to'kilar tinimsiz –
Za'faron... za'faron... za'faron...

Asta-sekin qosh ham qoraydi,
Hamrohdirman yolg'iz menga man.
Bir kuyni kuylayman tinimsiz –
Yengaman... yengaman... yengaman..

Sokinlikdan qattiq dimiqqan
Borlig'im shahd tilar, g'ulu tilar.
Yog'ib yog'mas, tarqab tarqamas
Bulutlar... bulutlar... bulutlar...

Hali yulduzlardek charaqlarim bor,
Bordir bulutlardek bo'zlarim.
Bo'lgim kelayotir osmonning
Ko'zları... ko'zları... ko'zları...

7

O'kinch, anduhdardan voz kechib, tashlab,
Borlig'im sen bilan to'lmoqni xohlar.
Yo'limga xazondan poyandoz to'shab,
Xayrlashib qolar men bilan bog'lar.

Bog'lar mehribondir, bog'lar rahmdil,
Bog'lar yuragimni tergashmas.
Bog'lar bilar. Bog'lar nozikfahmdir.
Bog'lar menga sira ergashmas.

Yolg'iz yo'l olaman xayollaringga,
Ozorlaydi hatto gullar ta'qibi.
Xayollarining quchoq ocharlar menga,
Xayollarining – bog'lar raqibi.

Xayollarining – xazon, xayollarining – kuz,
Bu yerda ham sovuq boshlangan.
Orzularining yaproq to'kkalar ma'yus,
Umidlarining ko'mib tashlangan.

Yo'q... endi qilmayman yaqo chok zorlar,
Bardosh beraman bu firoqqa.
Faqat bahorgacha tokzorlar
Ko'milib yotadi tuproqqa.

8

Buncha hasadgo'ysan, qahraton?
Izg'irinlar, buncha baxilsiz?
Qancha uvillamang, baribir,
Umrlik bog'larim daxlsiz.

Ularni urmadi qahringiz,
Xazonlar hijrondan boshlandi.
Menga mushtoqdirlar bog'larim,
Bog'larim bo'lmaydi tashlandiq.

Yo'lga chiqmoqdaman men bugun,
Boraman bog'larim bag'rige.
Bog'lar yuragimdek intizor,
Bog'lar yuragimdek og'rigan.

Ular tashrifimdan entikib,
Bag'rimga o'zlarin tashlarlar.
Quchog'imda yashil ta'nalarini
Mastona shivirlay boshlarlar:

«Kecha kelsaydingiz... bu yerlar
Op-oppoq, op-oppoq qor edi.
Ko'rardingiz, qanday izg'irin,
Shafqatsiz qahraton bor edi...»

BU UY

*Navoiy teatrining oldida bir yigitcha: «Adabiyotchilar uyiga
qanday borsa bo'ladi?» – deb so'radi.*

«Bo'lsa hamki asl rahnamolar mo'l,
Qilgandek yulg'undan nay tama,
Kelib-kelib mendan so'radingmi yo'l,
Endi chidab eshit. Aytaman.

Ustozlar – ruhingda,
Borarkansan yakka,
Bu yo'lida bo'lmoq shart har qadamda pok.
Yo'qsa, zahmatlaring chiqar chippakka,
Bu yo'l shunday qaltis, xatarnok.

Dovyurakmi yoki shahdi kamroqsan,
Sen bu yo'lida o'zing o'zingga soqchi.
Bu yo'lida o'zing o'zingga hamrohsan,
Bu yo'lida o'zingga o'zing qaroqchi.

Bu yo'lida umid bor, shiddat, g'ulu bor.
Ruh – dilingda yara. Yarangga em – ruh.
Sen o'zing bu yo'lida o'zingga tulpor,
Sen o'zing bu yo'lida o'zingga Semurg'.

Asl tuyg'ularing qilmasa g'amza,
Ustozlar nochordir, rag'batlar nimjon.
Yordam berolmas na asoschi Hamza,
Na G'afur G'ulom, na Hamid Olimjon.

Bo'lalar omonat, mayda, besubut,
Ko'chkida toshlardir cho'qqilardan daf.
Bo'lmasa vijdoning asli o'zi but,
Yo'q quruq nasihat, va'zlardan hech naf.

Sen, balki, shodliksan, balki, nolasan,
Bashorat ortiqcha... shoyad, bir kuni
Nasib qilsa, o'zing anglab olarsan
Bu uy yuragingda turganligini».

AGAVA DARAXTI

Agava umrida faqat bir marta gullaydi, so'ngra u qurib qo-ladi...

Xush ko'rishdik! Nihoyat, keldim
Necha shodlik, necha g'am osha.
Agavaning guli bu – zavqdir,
Agavaning guli – tomosha.

Achinmayman ketgan fursatga,
Har bir lahza garchi xazina.
Agavaning guli bu – zebdir,
Agavaning guli bu – ziynat.

Kechikmadim, ne baxt, ulgurdim,
Ravo bo'ldi oliv daqiqqa.
Agavaning guli bu – chin so'z,
Agavaning guli – haqiqat.

Meni zarra qo‘rqtolmadi
Yo‘l azobi solsa ham tahdid.
Agavaning guli bu – orzu,
Agavaning guli bu – umid.

Chaqnang, charaqlanglar, ko‘zlarim,
Qutlug‘ bo‘lsin noyob sultanat.
Agavaning guli bu – to‘ydir,
Agavaning guli – tantana.

Ming dardga ham giriftorligin
Ming ko‘rsang bas, qilib bo‘lmas rad.
Agavaning guli bu – qayg‘u,
Agavaning guli bu – hasrat.

Yuzim tushgach bu gulga bo‘ldi
Har tomirim bir olov daryo.
Agavaning guli bu – doddir,
Agavaning guli bu – faryod.

Toqat qildim guldasta tuzmay
Andishadan qo‘yib oldga g‘ov.
Agavaning guli – imtihon,
Agavaning guli bu – sinov.

Iloj qancha, qismat hukmini
Qiyg‘os gullar qilmoqda ijro.
Agavaning guli bu – visol,
Agavaning guli bu – hijron.

Kerakmikan dod-faryod, asli,
Hayot, o‘lim chambarchas, zotan.
Agavaning guli bu – aza,
Agavaning guli bu – motam.

Bir sevmak va bir o‘lmak baxti
Nasib etmas har bir oshiqqa.
Agavaning yo‘rig‘i – bo‘lak,
Agavaning yo‘rig‘i – boshqa.

Bu – Qays guli, bu – Majnun guli,
Gar uzatsam, qovrilgay qo‘lim.
Agavaning guli bu – bir baxt,
Bu – mangu bir hayotbaxsh o‘lim.

TUN BO'YI

Yomg'ir yurib chiqdi tomda tun bo'yi.

Shuhrat Matkarim

Ruhimda tonggacha ingrandi bir nay,
Bir totlig‘ tushlarni tolega yo‘yib...
O‘y o‘ylatib, pichir-pichirlab tinmay,
Yomg‘ir yurib chiqdi tomda tun bo‘yi.

Iblis o‘ldimi yo, tushdi izillab,
Bo‘lmoqchimi biron farishta to‘yi,
Suyunchiga meni keldimi izlab?
Yomg‘ir yurib chiqdi tomda tun bo‘yi.

Esladim yanoqqa jo gullaringni,
Dimog‘dan ketmadi sochlaring bo‘yi.
Xayolimga chirmab kokillaringni,
Yomg‘ir yurib chiqdi tomda tun bo‘yi.

Ming-ming baxt bag‘ishlab har bir qatrasи
Har qatrasи dilga ming-ming naqsh o‘yib.
Ishq sirin anglamoq bo‘ldimi nasib?
Yomg‘ir yurib chiqdi tomda tun bo‘yi.

Tuhfa etmoq uchun turfa bir gilam,
Qizg‘aldoqlar ekib tashlamoq o‘yi,

Qutlug‘ g‘am, tabarruk taraddud bilan
Yomg‘ir yurib chiqdi tomda tun bo‘yi.

Oshiqlar to‘kkuvchi ko‘zyoshlarmi yo
Oromim boshiga ming oyoq qo‘yib...
Ruhimga taratib mahzun bir ziyo,
Yomg‘ir yurib chiqdi tomda tun bo‘yi.

Zaminni izlarmi darbadar, nolon,
Osmon-u falakni nogahon yo‘yib...
To‘yib-to‘yib yig‘lab, o‘ksinib giryon
Yomg‘ir yurib chiqdi tomda tun bo‘yi...

BEHI

Bir juft behi keltirgan eding,
Bir-biridan xushbo‘y, muattar.
Men ularni qattiq sog‘indim
Va sarg‘aydim behidan badtar.

Mana, yana behilar pishdi
Firoq fasli, hijron mavsumi.
Mevalarning eng bir hazini,
Mevalarning eng bir ma’sumi.

Kezmakdaman behizorlarni,
Bir behi yo‘q boshin egmagan.
Za’faron bu mevalar sag‘ir,
Hech biriga qo‘ling tegmagan.

Sensiz butun dunyo bejizim,
Sensiz butun dunyo behudam.
Hamuqubat, hamdardim bilib
Hol so‘rayman har bir behidan.

Xayolimda boshqa mevalar
Ming bor inkor, ming bor rad bo‘ldi.
Dunyoda bor hikmat yakuni
Juft behidan iborat bo‘ldi.

Kelmasang-da, tonglar otmog‘i
Va kunlarning botmog‘i mumkin.
Lekin menga tinchlik bermaydi
Keltirganing juft behi tun-kun.

Aylandi ul biri quyoshim,
Aylandi ul biri oyimga.
Armon bilan boshqa behilar
To‘kiladi bir-bir poyimga.

* * *

Qutlug‘ diydoringga yetolmas
Muztarib bir karaxtingdirman.
Sen kelsang shod, ketsang ketolma.
Ming ildizli daraxtingdirman.

Barqlar urib aytib bo‘lganman
Senga so‘lmas so‘zlarni, gulim.
So‘lib gullab, gullab so‘lganman
Qolgunicha bir hovuch kulim.

Seva berib jim necha zamon,
Seva berib necha shovullab,
Tura berdim, garchi sen tomon
Tortqilasa hamki dovullar.

Yashil alangam ko‘p elandi,
Biroq ketding yo‘lingga qarab.
Kullarimga mening belandi
Va bulbullar topdilar sharaf.

Chahchahlashar jabringdan tinmay,
Taftlaridan lovullab kulning.
Olovidan eminlar, yonmay
Sen fahmsiz, rahmsiz gulning.

Yuragimda ming-ming tugunlar,
Xayollaring bilan barin yech.
... Tong uyg'onib, ayni bu kunlar
Bulbullarni ko'rganmisan hech?!

SIRTQI SABOQ

*«Imlo xatolarim bo'lsa, kechiring,
bozir parishonroqmon...»*

Maktubdan

Men seni sevaman... o, qursin esim,
Nahotki, «Men» – ega?.. «Sevaman» – kesim?..
Qoidaga mahkummiz buncha nega biz?
Muhabbat emasmi, axir, egamiz?

... Sen bo'lsang maktabda – mashaqqatdasan,
Ruhimda xavotir g'alayon boshlar.
Seni toliqtirib qo'ymadikmikin
Har xil undalmalar, otlar, olmoshlar?
«Ni»ni emas, seni sevaman o'zim,
Diydoringga yetmoq umidim ming-ming,
Sening ko'zlarining sog'indim, ko'zim,
Ko'zim yo'q ko'rishga turqini «ning»ning.
Yuragim kim, o'zi yuragim nima?
Yuragim zanjirband – zulfiingga bog'liq.
Yuragim bo'm-bo'sh uy, fayzli qilmasang,

Ochmasang, berk uydır, mahkam qulflög'liq.
Qulflari sinsinlar, kel, eshiklarning,
Uyiga o't tushsin kelishiklarning.
Qaratqining o'zi sensiz qaratqich,
Sensiz tushumni men tush ko'ribmidim?!
Sen bo'lsang shu qadar kelishgansanki,
Muhabbatdan boshqa kelishiging yo'q...
Na bir darak gap bor maktublarlingda,
Na bir ergash gap bor maktublarlingda,
Faqat yurak gap bor maktublarlingda,
Faqat tergash gap bor maktublarlingda.
Ruhimga hech tinmas g'amdan ta'qiblar,
Maktublar ishq dardin mahzun iloji.
O'qir, konvert yirtib, xatim raqiblar,
Yurakni olgandek ko'ksimni ochib.
O, yuragim mening – maktab bolasi!
Tahlikaga tushmay, cho'kmay sevadi.
Yuragim indamay sevadi seni,
Quchoqlamay sevar, o'pmay sevadi.
Men sevmoq baxtiga ming dardda yetdim,
Biroq bu ne hikmat, biroq bu ne sir?
Lablarimda sensiz bo'salar yetim,
Lablaringda mensiz bo'salar yesir.
Sening yo'qlovingsiz hislar ham sag'ir,
Xohi gar ishonma, xohi gar ishon.
Meni unutmabsan, xayriyat, axir,

Maktublar bitibsan xotirparishon.
Biroq sendan xat yo‘q kechadan beri,
Zor etding ko‘zlarim – gadolaringni,
Meni sog‘insayding, sog‘inganimdek
Jondan aziz imlo xatolaringni.
Baxt va kulfat bilan sevaman seni,
Sevaman zararlar va foydalarsiz.
Ko‘zlarim yo‘lingga termula berar
Hech qanday bir imlo qoidalarsiz.
Sen esa omon bo‘l bosh kelishikda,
Sarviqad va qalamqosh kelishikda.
Maktublar bitaver, mayli, parishon,
Ta’na kelishikda, tosh kelishikda.
Sen faqat unutma, faqat unutma,
Ko‘zlarim ko‘p yomon sog‘indi seni
Qayg‘u kelishikda...
yosh...
kelishikda...

* * *

Atoyiga tatabbu

Mening jonim! Menga jon vaqtি yetdi,
Yuraktashnangman, ummon vaqtি yetdi.

Chekarmen dodlar shahlolaringdan,
Bu zolimlarga iymon vaqt yetdi.

Qolib hajringda, bo'ldim dasht-u sahro,
Buyur tashrif, guliston vaqt yetdi.

Yetib keldi visoling vasli menga,
Firoqqa mendan hijron vaqt yetdi.

Yurak sindirdi ko'ksimda qafasni,
Qushingman, menga osmon vaqt yetdi.

Ko'zingning yoshlari ko'ksimni ezdi,
Baland tog'larga tolqon vaqt yetdi.

G'aming keldi qilich sermab boshimga,
O'zing bir asra, qalqon vaqt yetdi!..

* * *

Lovillar lolalar tog'lar tarafda bir fasl, jonim,
Xazon umri muhabbatdan bahordir muttasil, jonim.

Bo'lib tutqun qutulgim yo'q, muqaddas bir qafasdir ishq,
Xalos bo'lmoqni xohlarmi ko'ngilli hech asir, jonim?

Seni sevgach men o‘z qalbimga ham bir e’tiqod qo‘ydim,
Bilingay o‘tda oltin soxtami yoki asl, jonim.

So‘zingdan g‘am, ko‘zingdan nur umrbod yodgor qoldi,
Tikanlardan tikan, guldan qolur gullar nasl, jonim.

Bahor o‘xshar, quyosh o‘xshar, chaman o‘xshar jamolingga,
Firoq ichra shirin borliq qilar achchiq hazil, jonim.

Chekib ozorlar, torlarga jo qildim navolarni,
Yuraklardan qo‘shiq elchi, falaklardan – rasul, jonim.

Bugun garchi firoq taqdir, judolik bo‘lsa ham qismat,
Yurakda orzu – diydor, umidimdir – vasl, jonim.

* * *

Siymob yanglig‘ og‘ir qalqquvchi ko‘zga
Oson tug‘ilmaydi yurakdan bu yosh...
Mening kimim ham bor, ayt, sendan o‘zga?
Sen haqda o‘yimdan balqadi quyosh.
Borlig‘im nuringga mas’ud belanar,
Ruhim yorishadi so‘nmas ziyodan.
Yuragim yuragingga elanar,
Bir kaming bo‘lmasin bir kam dunyoda.

Yuksak qavatlarga jilmayar oftob,
Tabassumi yanglig‘ mushfiq onaning.
Hikmatlarga to‘la nurafshon kitob
Munis derazasi kasalxonaning.
Mutolaa qilaman o‘tkinchilarni,
Bu kitob ichra, o, azizdir yot ham.
Sen ham faromush qil g‘am, o‘kinchlarni,
Bir kaming bo‘lmasin bir kam dunyoda.

Tunlar mazmunini tonglar qilar sharh,
Gullar qiyg‘os qoplar sahro, qirlarin...
Manglayimda qushlar urayotir charx
Anglatmoqchi bo‘lib parvoz sirlarin.
Yuragim sen taraf yeldirar tulpor,
Goh somon yo‘l uzra kezar piyoda.
La‘l labingda pinhon ming chaman gul bor,
Bir kaming bo‘lmasin bir kam dunyoda.

Hayotning zolidan ishvalar zohir,
Necha Qaysni ko‘rgay necha ming sahro,
Sandiqlarda oqar necha ming Tohir,
Qulon ovlar hali necha ming Bahrom.
Biroq takrorlanmas ohu ko‘zlarining,
Garchi qavming ko‘pdir qirda-qiyoda.
Kundan kunga kamdir kam-u ko‘stlarining,
Bir kaming bo‘lmasin bir kam dunyoda.

Dunyo ishlariga termuldim hayron,
Goh dilni yuksaltdi ilohiy xulqlar.
Goh dil sultanatim qildilar vayron
Do'st baxtidan kulfat chekkan maxluqlar.
Odam ohista bir topadi kamol,
Odam shahar yanglig' kelar bunyoda.
Shamoldek shoshqaloq jahonda jamol,
Bir kaming bo'lmasin bir kam dunyoda...

* * *

Garchi oshiqlar adadsiz,
garchi ma'shuq soni ko'p,
Ikkimizning oldimizda, bil,
barchasin nuqsoni ko'p.

Bebaho ko'zyoshlaringni durga
qilmishlar qiyos,
Yaxshilarning yaxshilarga bunchalar
bo'htoni ko'p.

Men qoshingdan gar yo'l olsam,
har qadamdir – bir firoq,
Erkparast bu sultanatning
bunchalar zindoni ko'p.

Shoh qilib qo‘ymish aqlni
boshima taqdir nechun?
Bir itoat yo‘q, agarchi amri ko‘p,
farmoni ko‘p.

Bepoyon sahro kabi ruhimga sen
qo‘ysang qadam,
Ohularga tegmagil, bo‘l ehtiyot,
arsloni ko‘p.

Ko‘p g‘ururlanma jamolingga charaqlab,
ey quyosh,
Husni boqiy bu falakning sen kabi
mehmoni ko‘p.

Matnazar, hasratga chek qo‘y,
dardlaring ko‘z-ko‘zlama,
Ishq-muhabbat mulkining, bil,
sensiz ham armoni ko‘p.

* * *

Ishqi yo‘q azizlar xorlar ko‘rindi,
Ahli ishq qatorda norlar ko‘rindi,
Yuragimga boqsam, zorlar ko‘rindi,
Tomirlar o‘rnida torlar ko‘rindi.

Falakda yulduzlar toledan qomus,
Kim yorga ilhaqmas, yo toshdir, yo muz,
Men taraf kelmasang, ko'rindi nomus,
Sen taraf bormasam, orlar ko'rindi.

Har so'zda muzlarga o't bo'lib tegdim,
Borlig'im bog', mehrim niholin ekdim,
Ko'zyosh yomg'irlaring g'amini chekdim,
Boshimda shul sabab qorlar ko'rindi.

Har yulduz zulmatga nurdan o'q o'qlar,
Ko'rinnmadi ko'ngli diydordan to'qlar,
Ko'rindi bor bo'lib ko'ringan yo'qlar,
Yo'q bo'lib tuyulgan borlar ko'rindi.

Biyron-biyron o'ylar o'ylab, lol bo'ldim,
Uqubatlar chiqib, g'aribhol bo'ldim,
Sevib sen sarvimni, majnuntol bo'ldim,
O'zimdan o'zimga dorlar ko'rindi...

* * *

Bir vaqtlar Xorazm to'qaylarida
O'krigi tog'larga solgancha darzlar,
Momiq qadam tashlab yurgan purviqor
Har tishi bir xanjar yo'lbarslar.

... Ana, kelmoqda u hovlimizga zor,
Boshlamoqqa emas qonlig' bir jangni.
U oqsar. Demakki, jarohati bor,
«Kel, yo'lbars, do'stginam, uzat panjangni».

Jarohati jiddiy. Panjada cho'kir.
Hamdardman. Manglayda ter marjon-marjon.
«Bir daqiqa chida. Sekinroq o'kir.
Tamom. To'rt tomoning qibla, yo'lbarsjon».

Xalos bo'lib ketar yo'lbars minnatdor,
Men bilan ming yillik qadrdon go'yo.
...O, zamon! Bo'lmasang bunchalar g'addor,
Bu bir rivoyatmi va yo bir ro'yo?

Ship-shiydamdir bugun to'qayzor taraf,
Bemalol sayr etgil, xoh tun, xohi shom.
It, mushuklar esa zotiga qarab
Ko'riklarda taqar bo'yniga nishon.

To'qaylarni bizmas, kesganmi yovlar?
Tuzto'zon to'zg'itar faqat dovullar.
Qaylardadir endi mushuk miyovlar,
Endi qaylardadir itlar vovullar.

Sichqon ovlashga ham erinib hatto
Sandiraqlar ular bamisli g'olib.
Yo'lbarslar duch kelib qolsa mabodo,
Biz yengil tortamiz, qafasga solib.

Aqlim yetmay qolar taqdir o'yniga,
Hikmatlar mag'zini chaqib bo'lmaydi.
Deylik, nima uchun yo'lbars bo'yniga
Tanlovlarda nishon taqib bo'lmaydi?

O'rmonlarga esnab ochamiz aza,
Mudrab tutib dengiz motamlarini...
Xorazm xo'rsinib sog'inar ba'zan
Yo'lbarslarning mag'rur qadamlarini.

CHAQINLAR FASLI

Turkum

Urganch bilan Toshkent naqadar uzoq,
Urganch bilan Toshkent naqadar yaqin.
Sensiz har bir lahza – toshbaqa,
Sen bilan mangulik – bir chaqin.

Hozir esa, mana, chaqinlar fasli,
«Ketaman». Yuzingda bulutlar.
Juft olammiz. Boshqa olamlar

Unutilar...

Unutilar...

Unutilar...

Yomg‘irlar yog‘adi nigohlaringdan.
Jayhunni toshirar qutlug‘ ko‘zyoshlar.
Ikkimizni ming yil kutgan emanlar
Har bargda ming hikmat shivirlay boshlar.

To‘xtab bir mahliyo bo‘lmoqni istar,
Biroq bahor qo‘ymas holi-joniga.
Jayhun to‘lg‘anadi. Oshiqar.
Har qatrasи bir gul yoniga.

* * *

G‘animlar sha’nimga otadilar tosh
Go‘yo bir shunchaki, go‘yo bir loqayd.
Shunda ko‘zlaringga, ko‘zim, olma yosh,
Ularga: «Men uni sevaman», – deb ayt.

Ayt-u, qayril-da, ket. Jonim, sen omon.
Ayt-u, qayril-da, ket. Ular yer, jonim.
U yog‘iga ozor tortma. Bo‘lma qon.
U yog‘ini menga qo‘yib ber, jonim!..

* * *

Sen tufayli bildim, nimadir kulfat,
Sen tufayli bildim, saodat nadir.
Sen tug'ilgan kun qish qirq chillasimas,
Laylat ul-qadr!..

Baribir tengsiz bir qutlug' diydorga
G'amgin hayotimda yetmaskan gal to,
Ishona ber, jonim, men tug'ilgan kun
Yal-do!..

* * *

Bir qahringdan ming tuman lashkar
Bo'lib poylaringda qirildim.
Iltifotli nigohlaringdan
Bir-bir, bir-bir, bir-bir tirildim.

* * *

Kundan uyalasan, kunduz uchrashsak,
Iymanasan, tunlar uchrashsak, oydan.
O'rmonda daraxtdan qilasan hayo,
Sohillarda ibo qilasan soydan.

Har yaproqda bir yuz ko'rinar senga,
Har qatrada bitta ko'zning qarosi.

Har bir xo'rsinishing ishq mulkida bir
Marosim!

Yuragimda esa sho'x-sha'n, xushchaqchaq
O'yinlarga tushib, qilasan bazm.
Mening hayotimga sira kelmasim,
Mening hayotimdan sira ketmasim.

* * *

Haq farmoni shuldir, tashrif buyurdik,
Har bir nafasingdan mangulik bunyod.
Lekin, aqlim yetmas, biz kelmay turib
Qanday yashay bildi ekan bu dunyo?

Haq farmoni shuldir – bir kun ketamiz,
Shafqat qilmas bizga yillar shamoli.
Shunda aqlim yetmas, biz ketgandan so'ng
Nima kechar ekan dunyoning holi?..

* * *

Dunyoning yarmidan o'girasan yuz,
Yarmiga termulib baxt degan taxtdan.
Yarim dunyo o'lar rashkdan. Yarmining
Yuragi tars yorilar baxtdan.

Senga – yuragimda lochinlar qumri,
Senga – yuragimda sherlar jayrondir.
Sen baxtning baxtisan. Baxtligidan baxt
Hayrondir.

* * *

Mayin nafaslaring dovullarida
Chirpirak barglardek sovrilaman.
Seni rashk qilarkan hayot-mamotga,
Qovrilaman.

Na qovrilish tugar va na sovrilish,
Tamom bo'lmas inja bu dovul.
Ketaman. Shodligimni ayriliq
Qilar tanovul.

* * *

Dilimga sen ne-ne azoblar berib,
Jonimga sen ne-ne jabr qilmading
Men bor-yo'g'i chorak asr shoshildim
Va sen chorak asr sabr qilmading.

Bu xatoni sevgi tuzatar,
Oshiqmiz. Emasmiz yosh-qari.
Men haddan tashqari sevaman seni,
Sen meni sevmaysan haddan tashqari.

* * *

Men bir telba oshiq, qaramaysan hech,
Men bir telba oshiq – yuz o'girasan.
Qahqaham shu qadar qattiq jaranglar,
Yuragim naqadar qattiq o'krasa.

Sen yayraysan meni qiynab muttasil,
Jononim, jonimga rahm aylamaysan.
Jabr-u jafolaring jonbaxshligini,
Xudoga ming shukr, fahm aylamaysan.

Jonim bilan dilim yuksalar bir-bir,
Qahr-u itobingni bir-bir yodlashib.
Meni halok etgan azoblaringdan
Boraman tobora barhayotlashib.

Bilsang edi, qanday yuksalishini
Uqubatlaringdan ruhim ming dardda.
Xudo ko'rsatmasin, azoblaringni
To'xtatar qo'yarding shartta

Va menga ming ishva, ming mehr bilan
Termulib, termulib mo'ltirar eding.
Ozor bermasliging bilan ozorlab,
O'ldirmaslik bilan o'ldirar eding.

* * *

Bir-biridan aziz boshlar ko‘p ilhaq,
Bari lutfingga ko‘z tutadi.
Baxt qushi parparar muallaq,
Sening ishorangni kutadi.

Tuyg‘ular toliqar – kutmoq tahlika,
Boshlardagi hush ham toliqadi.
Osmon toliqadi, malikam,
Qush ham toliqadi.

Turibsan – goh kulib, goh to‘kib yoshlari
Muhabbatning oltin aravasida.
Baxtli bir bosh shohlik, boshqa boshlar
Fuqarolik arafasida.

* * *

Sendan kelar bo‘lsa qo‘ng‘iroq,
Sendan kelar bo‘lsa gar xatlar,
Bir lahzada bo‘lib ketar chilparchin
Barcha sarhadlar

Va sarxatlar bo‘lar baxt kitobiga
Muborak so‘zlarining – bir olam.
Chirt yumaman sururdan ko‘zlarim,
Boshlanur ilohiy mutolaa.

* * *

Sog‘inch bir hamlada sabrimni yengar,
Qutlug‘ diydoringga erishmagim shart.
Qanotli tulporlar eltadir senga,
Ey sarviqomat anduh, qoshi hilol dard.

Goh osmondan tushib, goh chiqib yerdan
Men senga yetaman horg‘in va o‘ktam.
«Yerdan chiqdingmi?» – deb o‘ylaysan erkam,
Taajjublanasan – «Tushdingmi ko‘kdan?..»

Ming chaqirim naridan bir iymo bilan
Qozonadir qaro ko‘zlarining zafar.
Senga tobe bo‘lar aql ham, dil ham,
Boshlana boshlaydi qutlug‘ bir safar.

Yuragim yuragingni qilar ziyyorat
Yashirinib teran-teran joylarga,
Ishqqa olaygan ko‘z buncha ko‘p, yo Rab,
Olib ketsam edi seni oylarga.

«Safarlar muborak!» – hapriqadi dil,
Bu qanday bir shodlik, qanday bir g‘amdir?
Chehrangda charaqlar qaysar bir surur,
Senga mening seni sevmog‘im kamdir.

Yuragimda chiqib olib eng to'rga,
Ta'nalar qilasan mudhish va mayin.
Muhabbatdan ulug' tuyg'uni o'rgat,
To shu tuyg'u bilan seni sevayin.

Sensiz ne ma'no bor, ayt, bu umrdan?
Tug'ilgansan atay mendek zoringga.
Sargardon bir umr yo'l bosdim bir dam
Termulay deb sening gul ruxsoringga.

Yurakni nimtalab boradir ne dard.
Ne balo bir sirsan, ne balo foshsan.
Safarimning sochi oqarib ketar.
Sen bo'lsang... sen bo'lsang...
juda ham yoshsan.

* * *

Xonam bo'm-bo'sh. Jimjit. Ayolsiz.
Ko'zlarimni yoshga to'ldiraman.
Go'yo o'ysiz, go'yo xayolsiz
Oltiraman... oltiraman... oltiraman...

O'ldiraman umidlarimni,
Ular yana topaverar jon.
Xotiramda may to'la qadah,
Qo'lda esa zaqqum to'la jom.

Kelmasliging yurakni ezar,
Bezdirib kunduzdan, kechadan.
Bir juft qaysar derazam esa
Sira uzilmaydi ko'chadan.

* * *

kki ko'zing tumor bo'lib taqilar
Yurak-yuragimga... jon-jonimga...
Isitmoq ham gapmi... bu ikki tumor
O't qo'yib yuborar xonumonimga.

Muhabbat oladi giribonimdan,
Na imkon, na istak xalos bo'lmoqqa.
Sen hayotim bilan to'lmoqqa mahkum,
Hayotim musharraf sen bilan to'lmoqqa.

Yo'q! Madad bermaydi ko'zlarda yomg'ir,
Yo'q! Madad bermaydi boshimdagi qor.
... Bir umrdan va bir – sendan iborat,
Juda qattiq keldi, jonim, bu bahor.

* * *

To'tiqushlar kuylar muhabbat haqda,
Kuylari o'zidek qalbaki, soxta...
Ne baxtki, sen hozir olis-olisda,
Ne baxtki, sen hozir uzoq-uzoqda.

Men bo'lsam musaffo xayollarimda
Qutlug' umidingga bo'lib asirlar,
Bunyod etmoqdaman senga bag'ishlab qasrlar!

Sen bu qasrlarda yashaya jaksan
yurakdan boshqaga bo'lmasdan tutqun.
Sharafingga sening chahchahlanadi
bulbulniki yanglig' duduq bir nutqim

Va tonglar boshqacha ota boshlaydi
yurakka taratib navobaxsh nurlar.
Muborak maslahat anjumaniga
tashrif buyuradi tong bilan hurlar.

Boshlanur yurakda ikki charosing,
boshlanur yurakda adl bo'ylering,
Ming navro'z bir yerga jamlanib kelib
barq urgani yanglig' to'ylaring.

Gulbarglar g'unchada entikar jumjit,
baxtga ulgu bo'lar juft hislarimiz...
Hech bir nomahramsiz boshlanib, aslo
tugamas muhabbat majlislarimiz.

* * *

Ko‘ngilning ko‘zлari charaqlab ketar,
Ko‘zyosh xira qilar nigohimizni.
Madadkordir Layli, Majnunlar,
Farhod, Shirin qutlar nikohimizni.

Muborakbod etar mas’ud bu damlar
Saodatning mumtoz paytlari.
Chiqar baxtimizning istiqboliga
Birlashib jahoning bor hayitlari.

Qutlug‘ arafadan yodgor mo‘jiza,
Mo‘minlikdir ishqqa chin giriftorlik.
Hayrat bilan og‘iz ochamiz, jonim,
Bo‘salar bo‘ladi bizga iftorlik.

* * *

Sen tug‘ilib kelsin deb bo‘lgan bunyod
kufr-u din, harb-u zarb, sirli moziylar.
Bizning diydor uchun obod etganlar
bu yurtni bir vaqtlar g‘oziyilar.

Sen bo‘lsang qanchalab asr berida,
ming xirojga har bir so‘zing munosib.
Javohir ko‘zyoshlar to‘kib yig‘laysan
shahid bir baxtimni bag‘ringga bosib!..

* * *

Qo‘y. Alvido dema. Bu – mudhish hukm.
Saodatdir chekmoq yo‘lga qarab oh.
O‘lmakka har qachon ulgurish mumkin,
Oshiqman, Vatanim – Ganjiqorabog‘.

Judolik istaysan. Yurak titrar zir.
Boshimni qo‘shmaysan boshingga.
... Ko‘priklarni yoqib ketaman bir-bir
Parvoz qilib qaytish uchun qoshingga.

* * *

Men butun ketaman, alif qaddim dol,
Barcha yomg‘irlaring, osmon, yerga quy.
Faqat sen g‘am chekma, faqat sen xush qol,
Navoiy ko‘chasi, o‘ttizinchi uy.

Har bir derazangda chaqnar bir quyosh,
Har sahfangda bir baxt ko‘rsatadi bo‘y.
Sen ulug‘ bir shodlik, qutlug‘ bir ko‘zyosh,
Navoiy ko‘chasi, o‘ttizinchi uy.

Sen tufayli umrim pok bir mutolaa,
Dardlarim sharhlari so‘zga sig‘mas o‘y.
Toshlarni eritgan otashin nolam,
Navoiy ko‘chasi, o‘ttizinchi uy.

G‘arib yuragimning muhtasham shoni,
O‘krangan bir navo, titrangan bir kuy.
Senda qolayotir jonioining joni,
Navoiy ko‘chasi, o‘ttizinchi uy.

Qaroqlarga qalqar qon bo‘lib bag‘ir,
Ne baxt, ne kulfat ishq – so‘ramayoq qo‘y.
Kimga ne yomonlik qilgandim axir,
Navoiy ko‘chasi, o‘ttizinchi uy?

Har dildin o‘zga bir o‘tda qovurar,
Kim u degan «Sevgi ko‘pga kelgan to‘y»?
Hijron shamollari menisovurar,
Navoiy ko‘chasi, o‘ttizinchi uy.

Tola sochiga ham bermaylik ozor,
Mayliga, men yonay, mayliga, sen kuy.
Muhabbatsiz ne-ne qasrlar mozor,
Navoiy ko‘chasi, o‘ttizinchi uy.

* * *

Bibi Maryamga

Men seni jonioim desam, jonon,
jon kimlarda yo‘q,
Oh-fig‘on chekmak uchun oh-u
fig‘on kimlarda yo‘q.

Bir o'zing bir men o'zimda,
ming shukur, borsan faqat,
Desalarkim sarviqad,
qoshi kamon kimlarda yo'q.

Sen bo'lak bir yaxshidirsan,
bir yomondirsan bo'lak,
Yo'qsa, yo'q kimlarda yaxshi ham yomon,
kimlarda yo'q.

Navbahorim, yashasang bas,
men xazon topgum oson,
Bir kuni bir za'faron fasli
xazon kimlarda yo'q.

Boshimizni oftob birlan silar parvardigor,
O'ksimaylik zarra ham, ey,
mehribon kimlarda yo'q.

Baxt qushidirmiz, qo'naylik bir-birovning
ko'ngliga,
Chunki yer kimlarda yo'qdir,
osmon kimlarda yo'q.

Kuylamoq lozim muhabbat haqda
sal ohistaroq,

To'xta, ey dil, bulbulim,
shovqin-suron kimlarda yo'q...

TOG' KABI

Tog' kabi yuksaldim-u,
torlar misoli titradim,
Shu qadar ojizligim bor,
shu qadardir qudratim.

Yoshlarim yog'du sochib ko'ksimga
tim-tim tomdilar,
Gohi yulduzlarga, goh shabnamga
yuqdi illatim.

Yam-yashil tuyg'ularimga sen
ketib tegdi xazon,
Qovjirab, yaproq bo'lib bir-bir
to'kildi hasratim.

Husningga mag'rur bo'lib aytding:
«O'zingdan ketma, yor»,
To yashaysan menda,
mumkinmi o'zimdan hijratim?

Chiqli yodingdan nigohim,
bo'ldi ovozim unut,

Ko'zlarimni chirt yumib oldim,
tovushsiz o'kradim.

Taqlid etdim qushlarim –
qardoshlarimning fe'liga,
Kecha-kunduz nolalar qildim,
saharda mudradim.

Ko'kda chaqmoqdek xayol
sershiddat erdi, Matnazar,
Men uni to'mtoq qalam birlan
qog'ozda sudradim.

NECHA YILLIK AYRILIQDAN

Necha yillik ayriliqdan jonlarim
yonmog'i bor,
Jizg'anak bo'lmoq uchun talvasali
to'lg'onmog'i bor.

Ko'zlarim ochdir mening ham
tashnadir jonim yomon,
Ko'z to'yib jondan,
bu jon ko'zyoshima qonmog'i bor.

Gohi oy, gohi quyoshga o'xshatiblar
ahli ishq,

Kecha-kunduz bir-birin
avrablar aldanmog'i bor.

Dildagi har bir umid yo'lingda
so'nmasdan burun
Miltirab yulduz kabi un
chekmay ingranmog'i bor.

Ming yil uxbab yotgan ul tog'lar sari
qo'ysang qadam,
Tashrifingdan tebranib
dahshatli uyg'onmog'i bor.

Har baloning so'ngi bordir,
dilbarim, bir kun kelib
Borlig'imning borlig'ingga telba
chirmanmog'i bor.

Yor azob bergum dedi o'lguncha,
lekin, Matnazar,
Tushmagil tahlikaga,
aldoqchining tonmog'i bor.



SAVDO

Abdulla Qodiriyni o'ylab

Vatanni sotaman. Olinglar.
Quyosh – tillo tanga, oy – chaqa.
Lekin... bular kamlik qiladi,
Bo'la bilmas hatto choychaqa.

Vatanni sotaman. Olinglar.
Sotaman hayqirib. Sotaman jo'shib.
Bahosini kelishsak bo'lgani,
Jonimni beraman vatanga qo'shib.

YOVSHAN

Archa, senga oson, archa, senga maza,
Hamma fasl sening pushti panohing.
Libosing yam-yashil, xoh to'y, xoh aza,
Sovuq ham, issiq ham suyangan tog'ing.

Mening har bir novdam tezroq unib, o'sib,
Tezroq yashab qolish uchun oshiqqan.
Uzoq bir umrga yetmaydi ko'zim,
Mening hech kimim yo'q bahordan boshqa.

TILAK

Yusufjon qiziq xotirasiga

«Tila tilagingni», –
dedi xudoyim, –
Baxtli bo'lishing-chun,
ayt,
nima qilay?»
«Xudoyim,
ming shukr marhamatingga,
amr et,
inson bo'lib
tug'ilay».

Rahmdil xudoyim
kelajagimga
ajib bir saodat muhrini
bosdi.
... Bo'lajak onamga
bo'lajak otam
shu kun
yig'lab-yig'lab
bir maktub
yozdi.

* * *

Tabiat, men seni sevaman,
Tilayman mangu bir omonlik.
Senda – yaxshilikka yaxshilik mudom,
Senda – yomonlikka yomonlik.

Faqat ezguliklar, faqat pokliklar
Mangu bo‘stoningda o‘sса oladi.
...Gulga nish urmaydi asalari hech,
Asalari guldan bo‘sa oladi.

CHAQALOQ

Bir kulsa, ming baxtni qilgancha tortiq,
Qiqirlab bir quchoq, to‘lpi, baqaloq.
Qo‘ziqorindek tez, po‘latdek qattiq,
Dam sayin ulg‘ayib borar chaqaloq.

Kechalar, kunduzlar yonib-o‘chadi,
Tonglar otar – olov, shomlar so‘nar – kul...
Fasllar aridek qo‘nib uchadi,
Mevalanib borar inson degan gul.

QARSAKLAR

Sen ishonding bu qarsaklarga
Va kekkayding bamisli xoda.
Sotding, sotib qo'yding o'zingni,
Yana – juda arzon bahoda.

Farosating yetmadi, afsus,
Bu qo'llar qarsillab tolmaydi.
Taltaytirib otar osmonga,
Lekin – hech vaqt ilib olmaydi.

MUHABBAT

Yonma-yonlik – olis,
Yonma-yonlik – oz.
Bizlar bir-birovda yashashimiz shart.
Faqat shu,
Boshqasi – judolik, xolos.
Boshqasi – davolab bo'lmaydigan dard.

Iltijo emas,
Yo'q,
Afsun qilaman.
Sen menda,
Men senda
Bo'lamiz.

Boshqasi – bedavo dard. Men bilaman.
Bu dardni bir cheksak
O'lamiz.

* * *

Azim o'rik o'sar hovlimda yolg'iz,
Pishsa behuda hech ochmaydi og'iz.
«Shivir-shivir», «to'p-to'p» – vido ham salom,
Bir juft so'zda bo'liq meva va mag'iz.

Shundaydir bu firoq, shunday bu vasl,
Lafzida muayyan salmoq va marom.
Mushtoq bo'lib ketgan har bir mevasi
Sevgilim ruxsori kabi za'faron.

Har mevasi tillo bir puxta asar,
Tuhfa qilar betakror ko'rkin.
«To'p-to'p», o, kamoling buncha muxtasar,
Bunchalar hikmatli... kamgap o'rigim.

Guling – va'da, mevang – mo'tabar vafo,
Shuning-chun ham yurak dardiga davo...

BOBUR

Qovunni kesdilar. Qirmizi mag'iz.
Taraldi saroya Andijon bo'yи.
Vatan tuhfasiga urmasdi og'iz,
Faqt yig'lar edi to'yib va to'yib.

Faqat yuksaklarda muhtasham ruhi,
Butun mulki Hindni fayziyob etib.
Yo Alloh!.. Qovunning har bir urug'i
Ko'hi Nur edi!..

BAXSHINING O'YLARI

Ba'zan bazmlarga taklif qilishar,
Kelishmasa savlat to'kkан hofizlar.
Men qarib qolganman, yaxshi bilishar,
Bilishmas – qalbimda navqiron hislar.

«Volga» yubormaslar hech vaqt meni deb,
Yashasam-da azim shahardan chetda.
Odamlar qalbiga bermoq uchun zeb
Asta yo'l olaman velosipedda.

Dilda lovullagan olov dostonlar
Xalqim kechmishini qilsin deyman sharh.

Menga aziz kuya zor ostonalar,
Lekin goho sovuq qarshi olishar.

E'zozlay olmasa davralar, nahot,
Qutlug' bobo meros ehtirosimni.
Og'ir yangrataman borganim zahot
Farzanddek bag'rimga bosib sozimni.

Ko'plarga xush kelmas zalvorli bu kuy,
Qistalang qilishar: «Uni, buni chal».
Sho'rliklar... sho'rliklar bilmaydilarki,
Buyurtma qo'shiqlar sozimga ajal.

Goh nogoh yangratsam tumtaroq kuylar,
Ruhim kuzda guldek qoladi so'lib.
Nodonlar olqishi shunda tuyular
Menga donolarning qarg'ishi bo'lib.

Mayli, kimlarga dir bo'lmay men manzur,
Qay birovga, mayli, sozim yoqmasin.
Doston aytsam faqat tiyrak ko'zda nur,
Zukko aqlarda quyosh chaqnasin.

Shundagina menga kulib boqib baxt,
Dildagi hasratni butkul aritar...
Yo'q! Meni hech qachon keksaytiras vaqt,
Fahmsiz tinglovchi meni qaritar.

* * *

Yuragim simchiroq... simchiroq...
Joningdan, jonio, jon ulangan.
Bu mo'jiza chiroq, bu tilsim chiroq
Ko'ksimni to'dirdi shu'langga.

Sim-siyoh atrofim charaqlab,
Chekindi oqshomning zulmati.
Yorishmadi faqat ovloqlar,
Faqatgina zulmatlar kulmadi.

Mangu nurafshon bo'll!.. Sening-da
Hayoting yog'duga qorilsin.
Paymonam to'lsa, sen uzilma,
Mayliga – yuragim yorilsin.

* * *

Hali kechagina yulduzlar bilan
Chaqnashib turgan bu ko'zlarin,
Yovuz baqrayganlar bilan mardona
To'qnashib turgan bu ko'zlarin

Bugun, mana, o'rgimchak uyasi,
Chunki yashayapsan shunchaki.

Jirkanch g‘imirlaydi soqqalaringda
To‘qlik o‘rgimchagi, aysh o‘rgimchagi.

Chandib tashlangansan g‘aflat qurumiga,
Tunmi, kun? Tafovut qilmaysan vaqtini.
Shodlikni kuylaysan. Dunyo g‘am chekar.
Dunyo kulfat chekar. Kuylaysan baxtni.

Holbuki, Alpomish his-hayajonlar,
Jaloliddin tuyg‘u, Temurmalik ruhlar
Nayzasini shundoq yoniga qo‘yib
Sening yuragingda dong qotib uxlar.

Holbuki, ko‘zlarga bedorlik darmon,
Holbuki, ko‘zlarga uyg‘oqlik malham.
Uyg‘ot hayajonni. Tuyg‘uni. Ruhni
Uyg‘ot. Kech bo‘lmadi hali ham.

Uyg‘ot. Uyg‘otmoq shart. Zudlik bilan.
Darhol.
Olmoq shart o‘rgimchak jonini.
Yo‘qsa... so‘rib ichar pahlavon ruhlarning
Qorachiqlardagi qonini.

QO'RQOQNING QO'SHIG'I

Kelar edik to'ydan qishloqqa qaytib
Otam bilan ikkov kechib po'rsang, chang.
Kimdir juda ham sho'x bir qo'shiq aytib
Kelaverdi qo'yib ovozini vang.

So'lim oqshom ichra poyonsiz adir
Oydinda sut yanglig' yaltirar edi.
Lekin... qo'shiqchining sasi negadir
Allaqanday mudhish qaltirar edi.

Naq quloqni yoray derdi ovozi,
O'zi ko'p uzoqda bo'lsa ham.
Dadil, jasur kabi edi navosi,
Aslida, qalbaki, soxta bo'lsa ham.

G'amgin tortib qoldim. Ruhdan ketdi nur.
Otam ko'p donishmand odam edilar.
«Bolam, bu qo'shiqda xosiyat yo'q, yur,
Boshqa yo'lidan ketamiz, – dedilar, –

Tun vahmidan qo'rqb kuylayapti u,
Shunday odamlar ham bo'ladi.
Hozir salom bersak, chiqib ro'baro',
Yuragi yorilib o'ladi».

Ketdik. Shundan beri o'tdi ko'p zamon.
Qo'shiqqa tosh otish, axir, erish gap.
Kuylagan kimsani ko'rganim hamon
Men og'iz juftlayman salom berishga.

Qo'shiqda bo'lmasa jasorat va shahd,
U topgan zavol ham bebaho bir ganj...
Qo'rqqaniningdan qo'shiq aytsang, bu – dahshat,
Qo'rqqaniningdan qo'shiq aytsang, bu – jirkanch.

O'RGATILGAN QUSH

«Sizga erk berdilar. Berdilar osmon,
Ana. Yulduzlarni don qilib tering.
Evaziga – faqat so'ylamang yolg'on,
Evaziga – faqat haq so'z aytib bering!»

... Yo'q! Chuchmal chuldirash tinmadi bir dam,
Shirin-shirin sayradi havasga.
O'rgatilgan qushni ming haydasang ham,
Uraverar o'zin qafasga.

OSMONGA XAT

Bolaligimizda varrak iplariga qog'oz halqachalar tizib, shamolda ularning shiddat bilan osmonga qarab sirg'alishlarini kuzatar edik. Bu «osmonga xat» deb atalardi...

Men osmonga maktublar yozdim,
Ruhi yuksak, so'zлari oliy.
Xayollarim samoviy edi,
Maktublarim esa – xayoliy.

Lekin xayoldamas, asli ham
Sal samoviy bo'lgim kelardi.
G'ujg'on o'ynab, charaqlab turgan,
Tiniq, moviy bo'lgim kelardi.

Tinglamadi osmonni osmon
Yo mehrimdan rizo bo'lindi.
O'rtamizda na bir ittifoq
Va yo na bir nizo bo'lindi.

Menga rad javobin eltishga
Qay bir yulduzlarki ko'ndilar,
Pushaymondan yarim yo'ldayoq
Yonib, ado bo'lib so'ndilar.

Tugamadi mening yonganim,
Tugamadi mening kuyganim.
Osmon meni sevmasa hamki,
Yashayverdim unga suykanib.

Yashayverdim muhabbatimni
Anglasa deb bir kun, nihoyat.
Nasib bo'lsa yuksaklik, zora,
Va tiniqlik yuqsa deb, shoyad.

Sha'nimni hech urmadi yerga,
Xokisor bir oshiq ekanim.
Osmonga bosh egmak – bu boshni
Doim baland tutmoq degani.

Maftun, mag'rur qo'shiqlarimni
Qayta-qayta boshlayverdim men.
Tag-tubi yo'q, cheksiz bag'rige
Ko'zlarimni tashlayverdim men.

Umid bilan sochmoqda yog'du
Nurli choparlarim – ko'zlarim.
Ular endi so'nmas... Elchiga
O'lim yo'q-ku, axir, do'stlarim!

ATIRGUL

So‘qqaboshning ostonasiga
Bekitiqcha tashlangan yetim...
Seni ko‘rib tushdim larzaga,
Seni ko‘rib titradim-ketdim.

Ko‘rmagandim, ko‘p vaqtlar bo‘ldi,
Bunday alvon, so‘lim diydorni.
Bormi, axir, bundan ortiq baxt,
Bundan ortiq saodat bormi?

Kim xayolga keltirdi ekan
Bu yerlarga seni ekishni?
Men lol qotdim... bilmayotirman
Na quvonish, na g‘am chekishni.

Ag‘dar-to‘ntar bo‘ldi borlig‘im,
Bu qanday hol, bu qanday fasl?
Salom senga, qatag‘on ishqning
Ey lovullab turgan mevasi.

Chigit ko‘mildandi bag‘rimga,
Har egat bir dardli satr-ku.
Urug‘ingni qaysi bir laylak
Tashlab ketdi, aytgil, atirgul.

Hech kim seni toptamay o'tsin,
Iltijoman, o'tinch, nolaman.
Yuz yil boshi g'o'zadan chiqmay
Bir atirgul ungan dalaman.

Bo'g'zimdagи sirtmoq kesildi,
Bildim, nadir tole, nadir gul...
Gala-gala laylaklar kelsin,
Atirgulim, jonim atirgul!

OTAJON OG'A DIYDORI

Dunyoda borligingdan quvonadirman.
Sayfi Najmiy

Kelayotir edim Hazoraspdan jim,
Tirband avtobusda horg'in, asabiy,
Xuddi bu tirbandlik, to'palon uchun
Boshqalar oldimda gunohkor kabi.

Kimdir so'kinardi, no'noq kissavur
Cho'ntagiga qo'shib tanin kesgandek.
Har bir yangi bekat biz uchun javr,
Har yangi hamrohdan rosa bezgandik.

Avtobus oynasi diqqinfasdan
Botgandi ko'zyoshdek-ko'zyoshdek terga.
Ayovsiz bir qarg'ish lahza tinmasdan
Klmnidir toptardi teng qilib yerga.

Bilmadim, gunohi ne edi uning,
Hech kim ham hech kimning aybin bilmasdi.
Shu payt bitta yigit magnitofonning
«Chirq» etkizib nogoh tugmasin bosdi.

Qorong'u dillarni yoritib birdan
Jaranglay boshladi nurafshon so'zlar.
Alanglab turdi-da bunday sehrdan,
Mo'ltirab qoldilar o'qraygan ko'zlar.

Xonanda chekardi kassetada oh
Kimningdir kimgadir zorligi uchun.
Yurakdan hayqirib quvonardi goh
Birovning dunyoda borligi uchun.

Ilg'ab har bir so'zdan qutlug' ziyni,
Ko'zlarini ochdi bir parcha voha.
Har yurakda pinhon ming bir dunyoni
Yoritib yubordi Otajon og'a.

Sarob yo‘qolgandek shu bir nafasda,
Ketdi anduhlarni yangroq kuy olib.
Boya maymunlardek edik qafasda,
Endi-chi, turardik mulzam, uyalib.

Yigitni indamay tushundik bizlar,
Bildik g‘amimizni yeganligini.
Angladik, dunyoda musaffo hislar
Abadiy barqaror ekanligini.

Yigit bir bekatda tushib qolgan so‘ng
Bir-birovga boqib jum o‘yga toldik.
Eng baxtli tush birdan kelgan kabi o‘ng,
Mashina keng ekan, biz payqab qoldik.

Esladik: hamisha shodlanganmiz-ku
Kimningdir bizlarga zorligi uchun.
Hozir ham safarga otlanganmiz-ku
Kimningdir dunyoda borligi uchun.

Shundan beri meni qynar o‘zga hol,
O‘zga uqubatdan yuragim g‘am yer.
Ba’zan havolaniib gar sursam xayol,
O’sha avtobusga mengzab ketar Yer.

To‘g‘ri, sayyoramiz hududsiz, lekin
Ko‘ngillar torlikdan unda motamlar.
Oftob bepul, havo bo‘lmasa tekin,
Qirilib ketgudek sho‘rlik odamlar.

Bir chimdim tuproqqa ko‘zi to‘yguvchi
Yuhofe’llar hamon yashar qalashib.
O‘z o‘rnin eplashga yetmas-ku kuchi,
Chang solar o‘zganing yerin talashib.

G‘addor rejalaryndan turmasak ogoh,
Yer ham bir tugmaga bog‘liq taqdir-ku.
Tugmani men bossam... yangrasa nogoh
Bombalar o‘rniga mehrbaxsh bir kuy.

Anglasalar hamma beizoh, besharh
Mening ko‘nglimdagи orzuni ham jim.
Axir, ona zamin yashar urib charx
Odamning odamga zorligi uchun.

TAZARRU

Yetar endi loqaydlik, g'aflat,
Yetar endi lol, karaxt uxlash.
Demak kerak zabunni zabun,
Ulug'larni esa ulug'lash.

Minbarlardan o'tmish u-bu deb
Biyron sayrar ming-minglab sa'va.
Ko'p muqaddas yalovlar bugun
Murtad oyoqlarda paytava.

Ruhlar tanbal, tuyg'ular lavand,
Fasod keskir, bo'htonlar burro.
Yuz o'girgan shu sabab bizdan,
Ana, Shayxi Najmuddin Kubro.

O'tmish ham bir xom sut emgan jon,
Goh dard chekkan, goh qilgan rohat.
Aybdir unga sig'inish, balkim,
Lekin kamsitish bu – qabohat.

Chunki o'tmish – qurolsiz odam,
Qoshimizda hayron, lol turgan.
U o'zining himoyatini
Senga, menga, bizga qoldirgan.

Mushkul savdo tushsa boshiga,
Panoh istab yelajagi – biz.
Bizdan boshqa kimi bor uning?
Biz o‘tmishning kelajagimiz!

IBODAT

Rad etmagil dahriy deb meni,
Mustajob et ezgu duoyim.
O‘g‘il ko‘rsin o‘g‘li yo‘q odam,
Qizi yo‘qqa qiz ber, Xudoyim.

Umid bilan dunyoga kelgan
Farzandsizlik dog‘in tuymasin.
Hech parranda, hech darrandaning,
Qo‘y, iloyim, pushti kuymasin.

Qulunlar ber, saodatmand et
Har bir tulpor, har bir duldulni.
Avlodidan mosuvo qilma
Biron to‘ti, biron bulbulni.

Qo‘ralarga soladi qiron,
Uyalarda qiladi buzg‘un.
Bola ko‘rsin, baribir, bo‘ri,
Jo‘ja ochsin, baribir, quzg‘un.

Qoraysa ham dastidan falak,
Junjiksa ham dastidan bog'lar,
Zag'chalar ko'p sernasl bo'lsin,
O'zlaridan ko'paysin zog'lar.

Uzumlar ko'p meva bersinlar,
Gujumlar keng soya bersinlar.
Mayli, pechak, mayli, alaf ham
Ildizini yoya bersinlar.

Menga she'r bermasang bermagil,
Boshqalarni qilma nolonlar.
Mayliga, boshqorong'i bo'lsin
Mening yuragimga ilonlar.

Shudir senga o'tinchim, nolam,
Iltijo ham faryodim doim.
Baxtimizga, O'zing yolg'izsan,
Shu baxt bizga basdir, Xudoyim.

ISTARA

Yuragimda ming etik izi –
Juda yomon qattiq toptalgan.
Bu istara yana qayerdan,
Bilmam, yana qanday taft olgan.

Qanday o'lmas umidi borki,
Charaqlaydi bu charoslar sho'x?
Qanday qilib o'chmasdan turar
Bu muborak, bu muqaddas cho'g'?

KEKSA ARI

Meni kechir. Afv et. Ma'zur tut,
Dardzadaman. Qilmagin zulm.
Tikanlarim bor, mana, xolos,
Yulib olib qolingan gulim.

Qanotlarim titilib ketgan,
Kelganim yo'q senga yoqmoqqa.
Taroj bo'lgan asalim mening,
Nishim qolgan faqat chaqmoqqa.

NAVOIYNI O'QIB

Ming mashaqqat bilan chiqdim men,
Qirq yil tirmashdim bu cho'qqiga.
«Shoirmassan. Tushaver qaytib!»
Shunday bo'ldi hukm – o'qilgan.

Tegramga bir boqdim yutoqib
Dunyo ko'rib olmoq g'amida,
Yerga qaytib tushmog'im uchun
Yana qirq yil kerak... kamida.

ODOB HAQIDA

Xushomadgo‘y emas, insonsan,
Vijdon emas, azizim, non ye.
Oddiygina yashay ber har kun,
Unuta ber sharaf ne, shon ne.

Jasoratning shoxi bo‘lmaydi,
Jo‘n insof ham tengsiz bir faxr.
Jil panglaysan faqat og‘angga,
Ukangga ham salom de, axir!

UYQUCHI

Pinakka ketdi u ishning ustida
Balqib turganida mohtob to‘linib,
Ko‘rak chuvadigan temir mashina
Yamlab ketdi bitta oltin qo‘lini.

Shundan beri, mana, iqtisodi yarim,
Yumushlari – jo‘lda, baxti – chaladir.
Qarsak zarur bo‘lsa katta majlislarda,
Manglayiga urib chaladi.

TAJANG ODAM

Lug‘at-lug‘atlarga urib ketdi so‘zlat –
Sadoqat, oriyat, muhabbat va sha’n.
«Ozodlik» so‘ziga tikilib boqsang,
Naryog‘idan ko‘zga tashlanar kishan.

Baxtni niqob qilib olgandir kulfat,
«Do‘slik» so‘zi zimdan pichoq qayraydi.
Tom teshib, uy bosib tunda o‘g‘irlilik,
Kunduzi minbarda chah-chah sayraydi.

Jaranglardan ketib qolgan dilda un,
Torlarim titraydi navosiz, kuysiz.
Deylik, farishtadek ko‘ringan anov
Tannozning qilig‘in aytsam – o‘qchiysiz.

Bu gaplarim mening mubolag‘amas,
Bu gaplarim mening – nafsilamrdir.
Odamlardan bugun ko‘nglim sovigan,
Odamlardan bugun hafsalam pirdir.

Faqat gujum qolgan gujumligicha,
Tolligicha qolgan faqat bu tollar.
Bo‘ron tushunilar «bo‘ron» deganda,
Shamollar anglanar, desak shamollar.

Quyonlar qo‘rroqdir, bo‘rilar qonxo‘r,
Olapar – olapar, qashqa bu – qashqa...
Kimni sevib qolay gullardan bo‘lak,
Kimga oshiq bo‘lay chechakdan boshqa?!

JAZO

Faqat bo‘ysunishni bilardi,
Farqsiz edi unga na shayton, na xudo.
Bu qaysi bir shohning joniga tegdi,
Boshini qildirdi tanidan judo.

– Qopqog‘ini oching, – dedi, – bu boshning,
– To‘ntarib silkiting, – dedi qaltirab.
... Boshdan miya emas, son-sanoqsiz kishan
Oqib tushaverdi shaldirab.

DAVR

Gulduros qarsaklar, yakdil qarorlar,
Saylovlar – hamma bir ovozdan.
Zafarlar, omadlar, barorlar –
Siyohdan, qalamdan, qog‘ozdan.

Zimdangina qilib tashladi o‘sal
Sezilmas og‘riqning azobi.
Suyakka yetgan bu pichoq ko‘p go‘zal,
Na uchi bor uning, na tig‘, na sopi.

TOQATNING TA'RIFI

Ishing bo'lmasin hech o'zgalar bilan,
Faqat o'zingga sanch nishingni.
Chida. O'z tilingga qorovul qilib
Qo'ygin o'ttiz ikki tishingni.

Miq etma. So'kma hech davronni,
Uni ho'kiz bo'lib sur avval.
Uni baxtli degan sen o'zing,
O'zing uni degan hur avval.

Qonunbozlik qilma. Iqbol bobida
U tanho, u yolg'iz, u yakka.
Endi o'zingga ur pichoqni
To borib yetguncha suyakka.

Selob qon oqarkan jarohatingdan,
Ul pichoqdan yuvib to zangni –
Ming-ming sabr kosa hozirla,
To'ldir ming-ming sabr kosangni.

Davringni hur qilgan zotlarni
Taklif qilib keltir yoningga...
Shunday qilib, boshla bazmni,
Tashnalarni qondir qoningga.

DUDUK

Sarmast bo'lib ko'm-ko'k, yam-yashil baxtdan
O'sardim purviqor, yuksalardim cho'ng.
Sindirib oldilar meni daraxtdan,
Burab-burab duduk chiqardilar so'ng.

Shundan beri bo'ldim sukunat yovi,
Mendan, ey, fig'onlar taratgan do'stim,
Oyoqosti bo'lib yotgan anovi
Suyagimni qo'msab kuylaydi po'stim.

IZOH

Diydor quvonchidan nogahon
Biron-bir kori hol topmasin deyman.
Qovurg'amni sindirib, o'zimdan oldin
Qoshingizga chopmasin deyman.

Axir, bu yuragim kimsasizlikdan
Zada bo'lib qattiq o'ksingan.
Endi bilgandirsiz, nima uchun men
Qo'limni qo'yaman ko'ksimga.

NAVRO'Z

Navro'z!

Ko'k bayrami!!!

Yurakni

Yam-yashil hayajon quchoqlar.

... Uyg'onma, bedazor,

Pusib yot, maysa.

Boshingni qirqishga shaydir

Pichoqlar.

E'TIROZ

So'zlarining yog'duli. Ko'zlarining sernur.

Ularga yuragim belandi necha.

Ko'zyoshlaring – qimmatbaho dur,

Sen ularni asra, ularni teja.

Visol guli juda tansiqdir. Biroq

Sen ista-istama so'ladi.

Ko'zyoshlaring hali munosibroq

Qayg'u uchun kerak bo'ladi.

To‘xtat bu aza, bu motamni,
Senga nasihatim shul, gulim.
Buncha uyaltirma odamni,
Men uchun yig‘lama, kulgilim.

DARSDAN SO‘NG

Kimnidir koyidi chekkani uchun.
Tortib olib qo‘ydi gugurtini ham.
Mashq daftarlarini yig‘di-da, so‘ngra
Bir-bir sanab ko‘rdi. Yetti daftar kam.
«Har gal shunday ahvol. Uyalmaysizmi?
Kelasiz o‘qishmas, qilish uchun sayr.
Bu safar ham ikki qo‘ymay turaman,
Ertaga qolganlar topshirsinlar. Xayr.
Qish kuni – bir tutam. Qoraygandi qosh.
Ikkilandi. O‘tmak kerak, axir, qirdan.
Eri ham kelmadi olib ketishga,
«Ko‘ngli sovidimi...» – vahm etdi birdan.
Hamkasb dugonasi qistovga tutib:
«Tunab keting, – dedi. – Kech bo‘lib qoldi».
Ko‘nmadi. Qo‘ltiqlab mashq daftarlarni
Uyga yolg‘iz o‘zi yayov yo‘l oldi.
Ovul tugab, endi qirga chiqqanda
Oqshom quyuq edi, atrof sim-siyoh.
Yo‘ldan qaytmoqchi ham bo‘ldi bir o‘yi.
«O‘g‘lim xastalanib qoldimikan yo...»

Yuragini battar vahima bosdi,
Qamradi tundan ham battar bir qo'rquv.
O'nqirmi, cho'nqirmi, o'rmi, qir demay
Yana ketaverdi, ketaverdi u.
Mudhish bir sharpani ilg'adi nogoh,
Razm solsa, qashqir. Qilardi ta'qib.
Esladi yirtqichning qo'rqishin o'tdan,
Iziga bir daftar tashladi yoqib.
Qashqir to'xtab qoldi. So'ng yana, yana,
Muallima omon topgan bu olov
Yirtqichga berardi ilojsiz sabr.
Yo'lovchi yoqardi, qashqir to'xtardi,
Tin olardi ikkov har daftarda bir.
Yo'l uzoq, tun qaro, qashqir esa och,
Och yirtqich bilarmi nadir sadoqat?
Uyga yaqin qolgan vaqtida tugadi
Muallimda daftar, qashqirda toqat.
Uvvos fig'on tutdi qishloqni tongda,
Zamin aza ochdi, zamon yig'ladi.
Daftar topshirmagan yetti o'quvchi
Hammadan ham yomon yig'ladi.
No'noq nazmim uchun afv et, xalqim,
Na olim, na fozil, na so'z piriman.
O'z vaqtida daftar topshira olmay
Qolgan bolalarning biriman.
Men yaxshi bilaman, tumor qilmaydi

Yozgan she'rlarimni oshiqlar.
Men yaxshi bilaman, qo'shiqlarim jo'n,
Bilaman, bular bir oddiy mashqlar.
Lekin... ketmakdasan kelajak sari
Tap tortmay qismatning dasht, qirlaridan.
O'zimcha asragim keladi seni
Yovuzlik, xiyonat qashqirlaridan.
Men mashq bajaraman, yozaman har kun
Daraklar, so'roqlar, xitoblarimni.
... Sen yo'l bo'yи yoqib tashlab ketaver
Qashqirlar qo'rqquvchi kitoblarimni.

BAHORNING SO'NGGI QO'SHIG'I

Yam-yashil o'ylarga tolib ketaman,
Xazon bo'lmay har yil g'olib ketaman.

Garchi menga anduh butkul begona,
Loqaydlardan nolib-nolib ketaman.

Umidvorman, bir kun men ularni ham
Muhabbat dardiga chalib ketaman.

Borliq beri tursin, har bir yurakka
Ming-minglab mo'jiza solib ketaman.

Meni bir o'ylab ko'r zerikkaningda
Olis-olislarga olib ketaman.

O'tib ketadi deb kim aytdi meni?
Sening yuragingda qolib ketaman.

* * *

Soyalaring buncha quyuq, jiydazor,
Soyalaring buncha, jiydazor, salqin.
Tovlangan barglaring yolg'izligimni
Shovullab-shovullab qiladi talqin.

Har bir barging, jonim, gohida yig'lar,
Har bir barging, jonim, gohida kular.
Har bir barging mendan aylanar gohi,
Har bir barging gohi mendan o'rgilar.

Men seni ekkanim yo'q edi, axir,
Men seni parvarish qilmagan edim.
Bugun esa butun borlig'ingni, oh,
Sha'nimga bir g'azal qilib o'qidim.

Bir qo'shiq tingladim – sirli, iforli –
«Ganjiqorabog»ni tinglagandek mast.
Bunday og'ochlarni Allohdan bo'lak,
Yo'q, hech kim o'tqazmas, yo'q, hech kim ekmas.

Mevalaring qutlug‘ bunyod bo‘libdir,
Osmondan kitoblar bo‘lgandek nozil...
Nima yaxshiligm uchun bu sehr,
Nima yaxshiligm uchun bu hosil?

Nima yaxshiligm uchun shukuhing,
Yuragimning ravshan rizq-u ro‘zlari?
Nima yaxshiligm uchun, yo Alloh,
Sevgilimning buncha qaro ko‘zlari?

Nima yaxshiligm uchun bunchalik
Qator-qator nola, qator-qator faryod?
Nima yaxshiligm uchun – men o‘zim,
Nima yaxshiligm uchun bu hayot?!

... Bir-birovga bo‘lib tursin hamisha
Har bir yurak mushtoq, har bir diydazor.
Jiydazor, men seni sog‘ingan kabi,
Men qoshingga kelgan kabi, jiydazor.

TARADDUD

Sen farishta – osmon farzandi,
Belanchak yer oshyoning sening.
Sig‘mas senga o‘limning haddi,
Yo‘qdir cheking, poyoning sening.

Semurg‘lar ham bog‘lay olmas bahs,
Inson degan kalom – ta’rifing.
Pok bo‘lsang bas, ozod bo‘lsang bas,
Yo‘l azobi – ojiz harifing.

Lekin uzoq shaylanasan sen,
Taradduding topmas nihoya.
Yetmay qolgan bu ishga o‘tmish,
Kelajak ham qilmas kifoya.

MO‘MIN-QOBIL

So‘l desangiz, yetar – so‘laman,
Ochil deb aytsangiz – ochilaman.
Yig‘il desangiz – jam bo‘laman,
Sochil desangiz, bas – sochilaman.

Yon desangiz, yonay shu zamon,
O‘ch desangiz, darrov o‘chayin.
Savaladingiz kecha ko‘p yomon,
Qamchingiz og‘rimadimi, xo‘jayin?!

AYRILIQ

Na osmondan madad, na yerdan yordam,
Kelmasang – kunlarim vahshiy bir holda.
Hozir qulab tushdim. Uzildim dordan,
Bosh ostimda kunda. Ustimda bolta.

Diydamga yosh kelmas. Tosh qotgan diydam.
Quchog‘im qabrdek huvillar.
Yuragim tap-taqir. Ruhim shipshiydam.
Botlig‘imda bo‘ri uvillar.

G‘OYA

Sho‘rlik! O‘z tilingga yetmaydi kuching,
Ta’kidlab mening gap uqmasligimni,
Kinoya qilasan, otasan piching,
Istaysan chiziqdan chiqmasligimni.

Chiziq bo‘lsa agar ko‘pga kelgan to‘y,
Mafkuram tuzukmi – buzuqmi,
Senga chizdirmayman, bilib qo‘y,
O‘zim chizaman bu chiziqnii.

SURBET

Unga duch kelganing mudhish bir kunni
Umrimda eng aziz onim deb aytding.
Vijdonim deb aytding vijdoni yo‘qni,
Sha’ni yo‘qni, darig‘, shonim deb aytding.

Sen osmonda eding. U yerda edi.
Yutoqib qanotlaring qasdida.
Boshga ko‘tarding, so‘ng gerdayib dedi:
«O‘ralashma oyog‘im ostida...»

SHAYTON

Juda olijanob, ko‘p sermuruvvat,
Chunon rahmdilki, qilasan havas.
Faqt bir sharti bor, faqt bir sharti,
Uning mushugiga pisht demasang bas.

Aylanib-o‘rgilar qadd-u bo‘yingdan
Har so‘zdan taratib ziyoni...
Mushuklari esa, mushuklar esa
Bosib ketgan butun dunyoni.

* * *

Qushdek ozod bo'ldi hamma qul,
Mute turibdi u angrayib.
Ahvoli o'ziga ko'p ma'qul,
Unga zanjir hayfdir, unga kishan hayf.

Osongina oyoqosti etadi
Yo'liqqan har murtad – amiri.
... Uni bog'lab qo'yish uchun yetadi
Lag'monning uzun bir xamiri.

YARA

Hayratga tushaman yurak orziqib,
Bu yara juda ham g'alati.
Dori surtsang, battar oziqib,
Malham qo'ysang, gazak oladi.

Sababini so'ylasam, bu doston
Qirq kecha-kunduzga uzalar.
Qon talashgan sayin orom topar jon,
Tuz sepganing sayin tuzalar.

* * *

Aqlim bovar qilmas. Lolman, karaxtman,
Ne yanglig‘ hamla bu, bu ne yanglig‘ ahd?
Ilonning ustiga tikka boryapsan,
Ilonning ustiga boryapsan shaxd.

«Qayt!» – deyman, bo‘g‘zimda sasim qotadi,
Yo‘lingni to‘smoqqa yo‘qdir ilojim.
Ilon – boshdan oyoq ilon. Sening esa
Vujuding – qaldirg‘och, yuraging – lochin!..

* * *

Horg‘in ko‘zlaringga sen bergen bir dard
Kundan kun mahkamroq, mahkumroq botar.
Mo‘ltirab, jovdirab kelasan har kun,
Nigohing to‘la xavf, tahlika, xatar.

Ming matonat bilan to‘kmay turasan
Qorachiqqa qalqqan qutlug‘ jolangni.
Chorasiz ohusan, qutqarolmaysan
Chuqur chohda yotgan sho‘rlik bolangni...

AYIQ

«She'ringiz ko'p qo'pol.
She'rda har bir so'z
Jaranglashi kerak dilni qitiqlab.
Sal nafisroq yozing...»
Tinglayman ma'yus.
Omadsiz papkamni qo'lqiqlab.

Sizga hamkasb, o'zi, shakarguftor tillar,
Jilmayib qo'yasiz holimdan ogoh.
Qaydadir o'qiganim jirkanch qatlar
Yalt etib yodimga tushadi nogoh.

Qaysidir bir yurtda qadim zamonlar
Shunday oliv jazo ko'rilgan afzal.
Taxtaga chandilgan barcha yomonlar,
So'ngra tovonlarga surkalgan asal.

Ayiqqa havola qilingan bari,
U esa yalagan to'yib va to'yib.
Tomosha qilganlar yurt hakamlari
Mahkumlarni shunday qitiqlab qo'yib.

Yomonlik tus olgach chuqur hamda keng,
Qiyin bo'lgach farqlash, aniqlash, turlash,
Butun mamlakatni tutib ketgan, deng,
Umumqitiqlash va umumqiqirlash.

Qitiqning ham, axir, chegarasi bor,
Chil-chil bo'lar bejiz kulta, deylik, tosh.
Mahkumlar yuragi yorilgan abgor
Mudhish bu kulguga berolmay bardosh.

Yalpi xursandchilik. Unutdir shafqat,
Xalqni gum qilganlar yalab va yulqab.
Elda tirik qolgan hakamlar faqat,
Elda tirik qolgan faqat ayiqlar.

Garchi ko'pchilikka manzur, azizsiz,
Haq so'zni aytishga hayiqmasman men.
Siz-ku qitiqlashda mutaxassissiz,
Men hakam emasman, ayiqmasman men.

Mening dard – sharafim,
mening g'am – sha'nim,
Ko'zlarim – olddagi dovonlarimda.
Oyog'imga boqmang bunday tamshanib,
Asal ham yo'q mening tovonlarimda!

* * *

So'nggi qoplon o'ldi qo'riqxonada
Ikki oyog'iga qo'ygancha boshin.
Hech kim ko'rmay qoldi eng so'nggi damda
Bir juft laxcha cho'g'dek ko'zyoshin.

U o'ldi olis bir o'rmonda yurgan
Mo'tabar juftining ayrilik'idan.
Tegrasin burkagan mahdud borliqning
G'ayrilik'idan.

Shu kuni quyoshni bulutlar to'sdi,
Shu oqshom mutlaqo ko'rinnadi oy.
So'nggi qoplon o'ldi. Uning bilan birga
Bizlarning xislatlar o'ldi, hoynahoy.

Olisdagi qoplon sezar bu o'limni,
Faryodi uning-da boshiga yetar.
So'nggi qoplon o'ldi. Endi bu motamdan
«Qizil kitob» battar qizarib ketar.

Dastimizdan bizning oshiqliq qoplon o'ldi,
Tokay o'zimizdan ketib yashaymiz,
Tokaygacha mushuklar boshini silab,
Qoplonlar boshiga yetib yashaymiz?!

MANZARA

Anduh qamal qilar yurakni,
Tun-kun aro yo'qdek tafovut.
Borliq quyuq, qaro bulutdan
Kiyib olgan omonat sovut.

Osmon yomon qattiq xo'mraygan,
Chek qo'yilgan uning ayshiga.
O'xshab ketar yilt etgan yog'du
Jahongirning jilmayishiga.

* * *

O'lgan emasdirlar o'lganlar, asli,
O'ngda mahrum bo'lib iltifotingdan,
Bedorlikni ko'zdan abadiy quvgan,
Seni tush ko'rishga qattiq inonib
Hammalari ketgan uyquga.

So'ngsiz tushlar ko'rар hammasi,
Tushlarki bir navo, tushlarki bir kuy.
Tushlarida boqiy izlarlar seni
Va topa olmaslar abadiy.

Bu uyqu o'limdan-da botqoqroq,
Bu uyqu o'limdan-da tuzoqroq.
Topsalarmi seni, uxlارlar
Mangulikdan ko'ra uzoqroq.

Men ketgan uyqular birmuncha sodda,
Xush ko'rmayman seni izlashni daydib.
Topsam, topmasam-da, yarim oqshomlar
Ko'zlarim to'la yosh, kelaman qaytib...

* * *

Xorazmni qazsangiz agar,
Yer ostidan daryolar chiqar.
Xorazmni qazsangiz agar,
Yer ostidan dunyolar chiqar.

Nola tortib yuborajaksiz,
Qorachiqdan chaqnab ziyolar.
«Yer ostiga nega ketdingiz,
Aziz daryo, aziz dunyolar?»

Shunday javob bo'lgaydir sizga:
«Yo'q! Ketmakchi emas erdik biz.
Sizlarning ko'p kirdikorlardan
Yer yorildi, yerga kirdik biz.

Hali bir avlodlar kelgaydir
Nomizingizdan tavbalar aytib.
Shunda, inshoolloh, hammamiz
Yer yuziga chiqurmiz qaytib!»

* * *

Tunlarim tong bo'lar seni o'ylanib,
Seni o'ylab mening bo'lar kech kunim.
Sening mendan boshqa hammalaring bor,
Mening sendan boshqa yo'qdir hech kimim.

Darvoqe, senim ham yo'qsan-ku mening,
Seni hech meniki demaslar endi.
Yurak mavhum bir baxt... yurakdan boshqa
Hech birov meniki emaslar endi.

Oyoqlarim menga bosh egmas sira,
Oyoqlarim meni senga sudraydi.
Judolik libosin ustimga o'rtib,
Ruhimda sadoqat mudraydi.

Yurakda sayraydi majruh bir bulbul
Behuda axtarib qiyg'os hislarni.
Gulim... dilim... shu ham hayot bo'ldimi,
Xudo rahmat qilgan bo'lsin bizlarni.

* * *

Qaramaysan. Men ham loqayddek
Go'yo nigoh zahmat, ishq zarar.
Lekin... mana, titrar qo'llarim,
Lekin, ana, yuzing qizarar.

Chindan bir-birovni bilmasak,
Tinchgina kun ko'rsak qani edi.
... Tipirchilab sho'rlik yuraklar
Bir-birini darrov taniydi.

* * *

Bugun bir orqayin tin olar Toshkent,
Tongda bir xotirjam kerishadi.
Sen kecha Toshkentga jo'nab ketib eding,
Toshkent diydoringga erishadi.

Endi mijjalarim qilt etmas
Balki necha kunlab, balki haftalab.
Kelguningcha Urganch – vayrona,
Kelguningcha Urganch – dabdala.

Ketasan, qishloqlar ziynatlansa ham,
Shaharlar bersa ham o'ziga oro.
Ismingni xutbaga qo'shadi
Bu tun armon bilan Buxoro.

Bu tun alangalar sovitar
Mening lovullagan qonimni.
Yo'llarga hayratda boqar Samarqand
Bir lahza unutib Bibixonimni.

Qaytguningcha Urganch dili g'am o'ram
Qaytguningcha Urganch ko'zлari yosh kent.
Qaytguningcha endi, tan olmoq kerak,
Chindan poytaxt bo'lib turadi Toshkent.

FIROQ SHU'LASI

Shuurim dovdirab, qaqshadi jonio,
Uzilmas umidim, bo'lding bir tilsim.
Pinhon bo'lgan ganjim, maxfiy bir shonim,
Notavon dil seni dafina qilsin.

Oshkor faxr etsinlar tegrangdagilar,
Baxti kulib mehr – ezgu huquqdan.
Azaliy-abadiy nurdan dur bo'lib
Jonom-jahonimga jo bo'lgan nuqtam.

* * *

Gardlardan forig'im, musaffoginam,
Kipriklaring to'la marvarid g'amlar.
Lojuvard bo'shliqlar ichra istaydi
Har tansiq jilvangni tiniq shabnamlar.

Orazing oftobin balqitganiningdan
Rashk etib, kundoshlik qilib, hoynahoy,
Asta-sekin pastlab, sehrlanib jim
Mening quchog'imga kirayotir oy.

* * *

Nikoh, asli, nima? Ikki qultum suv...
Uni ishqqa tashna dil ichsa yaxshi.

Lekin... yuragimni o'rtar bu orzu,
Nimtalar bir yirtqich...
qiynar bir vahshiy.

O, chanqab yovvoyi bo'lgan umidim,
Rohatlardan kechgan, izg'ib uloqqan.
Aslo taslim bo'lmas...
boshlab borgayman
Men uni bir kuni sirli suvloqqa.

MAHZUN UN CHEKADI NAY YORALARI

Sonetlar chambari

1

Ayrilik'ing aro qaro bir qayg'u
Menga tuhfa etar bemalol malol.
Borlig'im chaqnatar zalvarli yog'du,
Ko'zyoshlarim Kavsar suvidek halol.

Zirqirab sog'inish – ruhimning faxri,
To ilhaq – dil haqdir, ham odam – odam.
Ajinlar ajinmas – ko'zyoshlar nahri,
Yulduzlar jolasi yog'ar samodan.

Sen chiqqan qatorlar chiqsaydi yo'lga,
Iz ostinda qiyg'os gullardi og'och.

Ishq – g‘olib bir vatan. Mag‘lub bir o‘lka.
Har bir zarrasiga olamlar muhtoj.
Torlarning tushiga kirmagan kuylar
Borliqni betakror kuy qilib kuylar.

2

Borliqni betakror kuy qilib kuylar
Ko‘zyoshlarim... qilsang qadam ranjida,
Dunyosan. Jamlangan kabi tuyular
Javharlarning jami jahon ganjidan.

Tutilar qoshlaring qoshida hilol,
Ruxsoringdan bo‘lmas umidlar uzib.
Men bir diltashnaman. Sen – chashma. Zilol.
Hap kulgich tubingda hasratim – Yusuf.

Tim-tim qorachig‘ing qa’rinda bir men,
Titrarman – judolik dog‘inda Ya’qub.
Sirli tushlar uchun yuksak ta’birmen,

Yodingda Anqodek qanotlar qoqib.
Yurakni qiladir zaqqum bir kuy xun,
Nechog‘ kulfatolud qutlug‘ bu tuyg‘u!

3
Nechog‘ kulfatolud qutlug‘ bu tuyg‘u,
Mangu alqar meni bir damlik diydot.
Bir damkim – saltanat, bir damkim – qayg‘u,
Damkim, azal-abad unga xaridor.

Jizg‘anakman tansiq shu bir nafas deb,
Zamin zindonimdir, osmon – qafasim.
Ko‘zyoshlar icharman, g‘amlaringni yeb,
Mening oftobchehra, nasiymnafasim.

Yo‘llaringga to‘lin oy nuri libos,
Oftob – maqsudlarning sayyor darchasi.
Chaman ruxsoringdan qutlug‘ iqtibos –

Chaman, bog‘-bo‘stonlar – barcha-barchasi.
Ruhimda boshlarkan achchiq o‘yinlar,
Chirpiratar qalbni qaysar quyunlar.

4

Chirpiratar qalbni qaysar quyunlar,
To‘zg‘iydi ming tuman oshiqning xoki.
Ruhimdan taratar achchiq kuy – unlar,
Unlarki, qoshinda daryolar sokin.

Tanazzul mavsumi, inqiroz fasli,
Judolik – jabringdan zaqqum xulosa.
Dilni zir titratar saroqlar vasli,
Suyab bo'larmidi, tog'lar qulasa?!

Minggijum ishonchim o'jar shovullar,
G'ajiy bilmas qaysar gumon qurtlari.
Bor bo'lsalar basdir qutlug' dovullar,

Majhul, shafqat bilmas umid yurtlari.
Ishqingdan ruhda ming falak – kamalak,
Shunchalar o'xshaysan falakka, malak.

5

Shunchalar o'xshaysan falakka, malak,
Mehrim parvozdadir kengliklaringda.
O, buncha mavzundir lochin, kapalak,
Tarozu yulduzli tengliklaringda.

Sharofating bilan topgan baxtim naqd,
Hayotni hayotga mehring mengzatar.
Zavol topdirolmas parvozimni Vaqt,
Ishq balogardondir, ruhni yengsa dard.

Ming-ming yulduz menga nurafshon savol,
Bu savolga oftob tanho javobdir.
Illoho, ruxsoring topmasin zavol,

Har olgan nafasing ming bir savobdir.
Poyonsiz bo'll! Bu baxt osmondek lozim,
Kulfatlar ofati senga parvozim.

6

Kulfatlar ofati senga parvozim,
Ziyoratim har ne baloga hamla.
Vasli dam jaranglab tinmagan sozim,
Hijronlar fasliga g‘amlarni g‘amlar.

Baxsh etib otash bir nafaslarimni,
Qatra yosh to‘kmasdan bo‘zlayman bu choq.
Bor ishqimni, barcha havaslarimni
Bag‘rimga bosaman qilib bir quchoq.

Bag‘rimda kelasan, ko‘zim, o‘zingga,
Saodatdan yuksak bir baxtni anglab.
Mehr ila boqsam gar shahlo ko‘zingga,

Yulduzlar charaqlar mungli jaranglab.
Bor sozlar-u so‘zlar – bari mushtarak
Berib baxtdan misli qaqnus qush darak.

Berib baxtdan misli qaqnus qush darak
 Har bir daqiqamda, har bir onimda,
 G'arib hislarimga girdikapalak,
 Joy olib turibsan, jonim, jonimdan.

Ikkov bir olammiz. Yaltillar faryod.
 Ko'ztomirlar – chaqmoq ildizlaridir.
 Nigohlaring mangu nur oqqan daryo,
 Sohir Kakhashonning yulduzlaridir.

Nega bu yulduzlar tortadi xira,
 Charaqlab-charaqlab yoki toldimi?
 Nechun oksinarlar mahzun miltirab,

Ularning ko'nglimdan ko'ngli qoldimi?
 G'ujg'on o'ynab tinar falak navosi,
 Qo'shiqqa shaylanar mingparda sozim.

Qo'shiqqa shaylanar mingparda sozim,
 Yurakda lovullar so'nmas alanga.
 Men bir zamin o'g'li, mehmonnavozim,
 Sen taraf yuksalib, chiqdim balandga.

Soydek sochlaringda sonmingta ranglar...
Boshlarim aylanar, tinar ko'zlarim.
Bo'g'zimga tiqilib unsiz jaranglar
O'ksingan ming armon – xomush so'zlarim

She'r nima, men kimman sening qoshingda,
Har qatra yoshingga kahkashonlar narx!
Sirli oshublari bilan boshingda

O'n sakkiz ming olam urayotir charx.
Qo'shiqlar – muhabbat ayyoralari,
Osmon – yuragingning sayyoralari.

9

Osmon – yuragingning sayyoralari
Falakfe'l ruhimga bir-bir ko'charlar.
Umidlar – saodat tayyoralari
O'chib-yonadirlar, yonib-o'charlar.

Nurafshon parvozdan tinmaslar bir dam,
Falak ham kunim deb menga muhtojmi?
Taxtmi sen uchun ham mehrim, malikam,
Muhabbatim ham, ayt, sen uchun tojmi?

Har dam baxt mavsumi. Ishq bo'lmas bevaqt.
Zirqirab tinmas dard sohili soyning.
Iftixor etmaymi, axir, bu ne baxt,

Men bilan ishi bor osmonda oyning!
Ko'zlarim dilingga termulib to'nar,
Mahzun kunlar qaysar hajringga ko'nar.

10

Mahzun kunlar qaysar hajringga ko'nar,
Falak tag'in kengroq tutar o'zini.
Ruxsoringga quyosh nogahon do'nar,
Men bilan teng tutmoq bo'lar o'zini.

Bo'salarim ko'mib tashlaydi shul dam,
Tushadi tip-tiniq yuziga dog'lar.
Baxt kulib boqar men xokisorga ham,
Mijjangda barq urar mehrigiyohlar.

Nigohingda tonglar ota boshlaydi,
Hatto boshlanadi quyosh to'lg'og'i.
Oydin ko'zlariningni ming baxt yoshlaydi,

Sen mahzun bo'l xohi, masrur bo'l xohi.
Navolar – chorasiz dil choralari,
Mahzun un chekadi nay yoralari.

11

Mahzun un chekadi nay yoralari,
Jarohatdan zada qalbni yongsilab¹.

¹ yongsilab – taqlid qilib (xorazmcha)

Hajringda dilimning sad poralarin
Otib kelayotir asta tong silab.

Navosiga ming-ming umid el bog'lar,
Nechun nayning boshdan oyog'i beldir?
Nechun unda buncha kumush belbog'lar?
Asrorini anglat, sharhini keltir.

Seni o'ylab mahzun olgan nafasim
Falak xumin to'la qilgan maymasmi?
Meni ozod qilsin ko'krak qafasim,

Har qobirg'am g'amdan egik naymasmi?!

Xayollarim nur va zulmatdek o'jar,
Yulduzlar yonadi, yulduzlar o'char.

12

Yulduzlar yonadi, yulduzlar o'char,
Ne baxt – zulfiqor nur nahrida oqmoq.
Zohirda sertug'yon urayotib charx,
Botinda yaltillar bir qo'shiq – chaqnoq.

Borlig'im borliqdan diydor elangan,
Nechun ruhsizlangay, ne uchun so'lgay?
Hijroningki sening nurga belangan,
Aqlim dovdiraydi... vasling ne bo'lgay?

Quyoshim qamashar tasavvurlardan,
Oftoblar g'ujg'oni keltirar dodga.
Mehrim iboratdir so'nmas nurlardan,

Qaytarib turadi tinmay hayotga.
Kakhashonlar o'ksib, bedorlanarlar,
Bizni juft topmasdan ozorlanarlar.

13

Bizni juft topmasdan ozorlanarlar,
Zirqirab ingranar chekkanim dardlar.
Nurafshon ko'rkingdan gulzorlanarlar,
Yulduzlar – qoshingga qo'nguvchi gardlar.

Qunduzdek qoshlaring chimrilgan paytda
Ular to'zg'iydilar turkum-turkumlab.
Ko'z, quloq tutarkan qayta va qayta,
Samoviy qo'shiqqa ochgung bir kun lab.

Taajjub bag'rida jon berishga shay,
Husningga xo'rsinib-xo'rsinib boqib,
Hayotga to'ymasman yashay va yashay,

Ilohiy bir baxtdan bo'lurman voqif.
Diydoring deb sening ozorlanarlar,
Sag'ir dard qushlarim bozorlanarlar.

14

Sag‘ir dard qushlarim bozorlanarlar,
 Ulardan faryodlar olarlar ulgu.
 Ishqsiz koshonalar mozorlanarlar
 Achchiq ko‘zyoshlarga bo‘lgancha kulgu.

Sog‘inchlarim ichra qaynaydi hayot,
 Hayotki, barhayot – qo‘llarida jom.
 Tobora olis baxt, hadsiz bir bayot
 Jaranglar, olarkan, jonimdan, o, jon!

Yaro dilga separ bu nag‘malar tuz,
 Muhlik achishadi jarohatlarim.
 Qurug‘ bir lug‘atdir, bea‘mol bir so‘z,

Seni sevibmanki, farog‘atlarim.
 Ko‘zlarimni qilar Jayhun va Sayhun
 Ayrilik‘ing aro qaro bir qayg‘u.

15

Ayrilik‘ing aro qaro bir qayg‘u
 Borliqni betakror kuy qilib kuylar.
 Nechog‘ kulfatolud qutlug‘ bu tuyg‘u,
 Chirpiratar qalbni qaysar quyunlar.

Shunchalar o'xshaysan falakka, malak,
Kulfatlar ofati senga parvozim.
Berib baxtdan misli Qaqnus qush darak,
Qo'shiqqa shaylanar mingparda sozim.

Osmon – yuragingning sayyoralari,
Mahzun kunlar qaysar hajringga ko'nar.
Mahzun un chekadi nay yoralari,

Yulduzlar yonadi, yulduzlar so'nar.
Bizni juft topmasdan ozorlanarlar,
Sag'ir dard qushlarim bozorlanarlar.

YOMG'IR

Yomg'ir yog'ar. Borliq qunishgan.
Bosliqadi yo'llarning changi.
Yomg'ir yog'ar. She'r yozgim kelar.
Go'yo yomg'ir yangi, she'r yangi.

Yomg'ir yog'ar. O'ylar o'ylayman,
Tinglab samovotning mungin jim.
Necha minginchi yomg'irdir bu
Va men shoir – necha minginchi.

Yo'q! Yo'q! Faqat menga bu yomg'ir
Va men bu yomg'irga doirman.

Ilk yomg'irdir olamdagı bu
Va men olamda ilk shoirman.

Sharros jalalarnı kuylayman
Dabdabasız, g'arib she'rlarda.
Aqlım yetmas, qanday sevarlar
Yomg'ır yog'maydigan yerlarda.

Yomg'ır yog'ar hayot baxsh etib
Mening qaqroq e'tiqodimga.
Yomg'ır yog'ar. Hech kim sololmas
Seni yomg'ırchalik yodimga.

Iymanmas hech ochilmoqdan gul,
Maysa bo'lmas unmoqdan izza.
Takrorlanar har gal shu yomg'ır,
Shu saodat, shu pok mo'jiza.

Ezgin-ezgin halqoblar ichra
Bedardliklar eriydi cho'kib.
Limmo-lim ko'p paymonalarnı
Yomg'ır yog'ar to'kib va to'kib.

Ogohmanki, to'ydirar jondan
Bu olamda bo'lsa ne takror.
Men betakror takror kuylayman,
Yomg'ır yog'ar takror betakror.

Sochiladi har bir tomchidan
Son ming shu'la, son mingta zar ruh,
Yog'ar tuyg'u, yog'ar ehtiros,
Yog'ar tavba, yog'ar tazarru.

Yomg'ir yog'ar. Falak fosh etar
Sirlarining toza-tozasin.
Tutmoqchidek menga to'ldirib
Mangulikning sabr kosasin.

Yomg'ir yog'ar, alhamdulillah,
Har tomchida ming xotiralar...
Qutlug' bo'lsin har qaysi bitta
Yulduzdan nur emgan qatralar!

YOLG'IZ YAPROQ

Ishqiga har lahza iqror yuragim,
Bir urishi ming sir-asror yuragim.
Sen kimga, kim senga, o, zor yuragim?
Chekaverma buncha ozor, yuragim.
Dunyo, o'zi, shunday bozor, yuragim.

Kahkashon – yo'lingda to'zg'igan changlar,
Ko'ksimda jimgina urasan bonglar,
Qorong'u ruhimda sen – otgan tonglar,

Ishq savdosin sira anglarmi onqlar?
Tarozu yulduzdek bedor yuragim.

Bedardlar chektirgan oh, yuragim, sen,
Goh gado, gohida shoh, yuragim, sen,
Quyosh yuragim sen, moh yuragim sen,
Dildorni deb yuksal, tog‘ yuragim, sen.
Dildorni deb titra, dutor yuragim.

Aytmam senga aql-u hush bo‘lib yasha,
Biroq g‘amlarni yeng, xush bo‘lib yasha,
Mardga o‘ng, nomardga tush bo‘lib yasha,
O‘zing osmon, o‘zing qush bo‘lib yasha,
Yo‘qsa, parvoz ishi dushvor, yuragim.

Garchi dardlar umrim bezayotirlar,
Hajr-u g‘am seni ko‘p ezayotirlar,
Borlig‘im bir qismat sezayotirlar,
Xazon shamollari esayotirlar,
Yolg‘iz yaproq yanglig‘ bemor yuragim.

Garchi ishq mangu baxt, boqiy jamoldir,
Umr deganlari esgan shamoldir,
Shiddati qoshida uchgan o‘q loldir,
O‘zingdan hamishabahorlar qoldir,
Emassan hamisha bahor, yuragim.

TARJIMAYI HOL

Ko‘rinmasdim har kim-har kimga,
Men – saharlar ufurgan nafas.
Gardsizligim, tozaligimga
Cheksizliklar qilardi havas.

Bir tong nogoh bo‘ldim men shabnam,
So‘ng bulutga, yomg‘irga do‘ndim.
Maysalarga aylandim kam-kam,
Tuproq bo‘lish dardiga ko‘ndim.

Ming yilliklar tarkum va tarkum
Qorildilar zulmat, ziyoga.
Saodatli qandaydir bir kun
Daraxt bo‘lib keldim dunyoga.

Hayot bir yo‘l – so‘ngsiz, betimsol,
Ming tirilib, ming o‘lib chopdim.
Nasib bo‘ldi noyob bir visol,
Jonzot bo‘lib tavallud topdim.

Qanoatlar, toqat, sabrlar
G‘ildiragi aylandi gir-gir.
Kechdi necha tuman davrlar,
Inson bo‘lib tug‘ildim axir.

Endigina orom topib jon,
Yetdi desam tolega xush gal,
Har to'kisda – necha ming nuqson,
Har to'kisda – necha ming ishkak.

Zulmat to'ydi yutib ziyoni,
Zulmatlarga ziyo ham to'ydi.
Diydoriga to'ydin dunyoning,
Diydorimga dunyo ham to'ydi.

Qo'ying, so'ylab bo'lmay men nolon,
Siz ham tinglab bo'lmanqiz halak.
Shu o'zingiz bilgan to'polon,
Shu o'zingiz bilgan charxpalak.

Nomard bo'lay agar nolisam,
Boshqa tirilmayman, o'lmayman.
Bir qutulsam, bir ketib olsam,
Dunyoga men boshqa kelmayman.

* * *

Bizlar o'lmagaymiz. Sizlarning yodlov
Jon baxsh etar hatto marhum jonlarga.
Qaytgaymiz bizlarni yo'qlagan zahot
Tirilib muborak xonadonlarga.

MUNDARIJA

Vatanni izlash	3
Onaginam	4
Orzu.....	5
Yo‘l.....	6
Iroda	8
Tasalli.....	8
Diydor	10
Xabaring yo‘q	10
Da’vat	13
Qor qo‘srig‘i.....	14
Sen, jonim, mana shu bog‘larnikisan	15
Bu uy.....	23
Agava daraxti.....	25
Tun bo‘yi	28
Behi.....	29
«Qutlug‘ diydoringga yetolmas...».....	31
Sirtqi saboq.....	32
«Mening jonim!».....	34
«Lovillar lolalar...»	35
«Siymobyanglig‘...»	36
«Garchi oshiqlar...».....	38
«Ishqi yoq oshiqlar...»	39
«Bir vaqtlar Xorazm...».....	40
Chaqinlar fasli.....	42
Tog‘ kabi.....	68
Necha yillik ayriliqdan	70
Savdo	72
Yovshan.....	73

Tilak	74
Chaqaloq	76
Qarsaklar	77
Muhabbat	78
Bobur	80
Baxshining o‘ylari	81
Qo‘rqoqning qo‘shig‘i	86
O‘rgatilgan qush	88
Osmonga xat	89
Atirgul	91
Otajon og‘a diydori	93
Tazarru	96
Ibodat	98
Istara	100
Keksa ari	101
Navoiyni o‘qib	102
Odob haqida	103
Uyquchi	104
Tajang odam	105
Jazo	107
Davr	108
Toqatning ta’rifi	109
Duduk	110
Izoh	111
Navro‘z	112
E’tiroz	113
Darsdan so‘ng	114
Bahorning so‘nggi qo‘shig‘i	116
Taraddud	119

Mo‘min-qobil.....	120
Ayriliq	121
G‘oya	122
Surbet	123
Shayton.....	124
Yara	126
Ayiq.....	129
Mahzun un chekadi nay yoralari.....	131
Yomg‘ir.....	141
Yolg‘iz yaproq.....	143
Tarjimayi hol.....	145

Adabiy-badiiy nashr

Matnazar ABDULHAKIM

She'rlar

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Badiiy muharrir: Bahriiddin BOZOROV

Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV

Sahifalovchi: Rustam ISOQULOV

Musahhih: Shahzoda HAKIMOVA

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 15.01.2020-y.

Bosishga ruxsat etildi: 24.03.2020-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x84 $\frac{1}{32}$.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t.: 4,5. Shartli b.t.: 5,2.

Adadi: 4000 nusxa.

Buyurtma № 88

«Akademnashr» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77


e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

«Javoxir nashr» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Ziyolilar ko'chasi 6-uy.

ISBN 978-9943-6361-0-1



9 789943 636101